



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2023-yil
21-dekabr
payshanba

№ 51 (4641)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

SARHISOB:

ENG NAMUNALI, ENG FIDOYILAR

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo'lga qo'yish bo'yicha an'anaviy tarzda o'tkaziladigan «Eng namunali vazirlik va idora» tanlovida Ichki ishlar vazirligi «OAV va ijtimoiy tarmoqlarda eng faol vazirlik-idora» nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topildi.

Bundan tashqari, «Ma'naviyat fidoyisi» ko'krak nishoni bilan Andijon viloyati IIB boshlig'ining o'rinbosari – Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'i, podpolkovnik Asilbek Rahmanov hamda Qashqadaryo viloyati Koson tumani IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Asror Boynazarov taqdirlandi.



«DOLZARB 40 KUN»

Surxondaryo viloyati hududida jinoyatchilikni jilovlash, kriminogen vaziyatni yaxshilash maqsadida o'tkazilayotgan tezkor-profilaktik tadbir doirasida aholi tinchligini ta'minlash va ijtimoiy profilaktikani kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda barcha sohaviy xizmat xodimlari yaqin hamkorlikda ish olib borib, jinoyatchilikka qarshi kurashishda jonbozlik ko'rsatishmoqda. Xususan, viloyat IIB JTSB Patrul-post xizmati batalyoni xodimlari tadbir doirasida jamoat joylari va aholi gavjum hududlarda o'z xizmat vazifalarini sidqidildan olib borishyapti.

YIL AYOLI – 2023

FAOL AYOLLAR – JAMIYAT TAYANCHI

XORAZM VILOYATI



Urganch shahrida O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashabbusi bilan o'tkazib kelinayotgan «Yil ayoli» va «Gender tenglik faoli» milliy tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlov yakuniga ko'ra, Tuproqqal'a tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Shahnoza Botirova «Yilning eng vatanparvar ayoli» nominatsiyasi g'olibi deb topildi.

– Yil davomida mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash tuman bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda mahallalarda, o'quv muassasalarida, korxona-tashkilotlarda xotin-qizlar o'rtasida jinoyat hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya

qilish, ish bilan ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi, – deydi podpolkovnik Shahnoza Botirova. – Natijada tuman hududida istiqomat qiluvchi xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilanib, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishi keskin kamayishiga erishildi.

O'z muxbirimiz.



QASHQADARYO VILOYATI



«Yil ayoli» va «Gender tenglik faoli» milliy tanlovining Qashqadaryo viloyati bosqichida viloyatning barcha shahar-tuman hokimliklari, voha huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Quvonarli jihati, tanlov natijalariga ko'ra, viloyat Ichki ishlar boshqarmasi «Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy davlat organi» nominatsiyasi

g'olibi bo'ldi. Xuddi shuningdek, tanlovning «Yilning eng vatanparvar ayoli» nominatsiyasida Shahrisabz tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Mohigul Kenjayeva g'oliblikni qo'lga kiritdi.

O'z muxbirimiz.

Suratda: (chapdan ikkinchi) podpolkovnik Mohigul Kenjayeva.

IZZAT-IKROM BILAN

HAMKASBLAR VA SHOGIRDLAR E'ZUZIDA

Polkovnik G'ulomjon Ahmedov ichki ishlar organlari xizmatiga kirganida endigina 21 yoshda edi. Orada qancha suvlar oqib o'tdi...

Qariyb 35 yil IIVda turli lavozimlarda xizmat qilgan G'. Ahmedov halol mehnati ortidan obro' orttirdi, yillar davomida o'z sha'niga zarracha gard yuqtirmadi. Kuni kecha o'zi faoliyat yuritgan IIV Moliya va moddiy-texnika ta'minoti departamentida fidoyi xodimni izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirida IIV Moliya va moddiy-texnika ta'minoti departamenti boshlig'ining birinchi o'rinbosari, polkovnik Nuriddin Xodjayev va qahramonimizning hamkasblari hamda shogirdlari ishtirok etib, o'zlarining samimiy dil izhorlarini bildirishdi.

– Polkovnik G'ulomjon Ahmedov ichki ishlar organlarida uzoq yillar xizmat qilib, o'zining mehnatsevarligi, tirishqoqligi bilan ko'pchilikka namuna bo'lgan, – deydi polkovnik Nuriddin Xodjayev. – U kishi yuklatilgan vazifalarni ado etishga vijdonan yondashadigan, rahbariyatning har bir topshirig'ini

o'z vaqtida va sifatli bajaradigan, hamkasblariga ham qo'lidan kelganicha beminnat yordam beradigan bag'rikeng inson.

Shu o'rinda polkovnik G'.Ahmedovning ko'p yillik xizmat faoliyatiga e'tibor qaratsak, ayni muddao bo'lardi. Chunki u bosib o'tgan yillar va yo'llarda Vatanimiz mustaqilligini yovuz kuchlardan himoya qilishda ko'rsatilgan mardlik va jasorat bor bo'yi bilan namoyon bo'ladi. Xususan, u IIV Maxsus vazifalarini bajarish otryadi komandirining jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'rinbosari sifatida faoliyat yuritishi mobaynida Toshkent shahridagi xunrezliklar, Andijon voqealari va Toshkent viloyatining chegara hududlaridan yurtimiz sarhadlarini buzib kirishga uringan terrorchilar bilan bo'lgan ayovsiz kurashlarda bevosita ishtirok etganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Albatta, bunday fidokorlik, yurt oldidagi xizmatlar alohida e'tirof etiladi. U fidokorona xizmatlari uchun davlatimizning yuksak mukofotlari – II darajali «Shon-sharaf» ordeni va «Jasarot» medali bilan taqdirlangan.



Turmush o'rtog'i Feruza opa bilan uch o'g'il, uch qizni tarbiyalab, el koriga yaraydigan farzandlar etib voyaga yetkazishdi. Hozirda ular 5 nafar nabiraning mehribon bobosi va buvisi sifatida umrguzaronlik qilmoqda. Quvonarlisi, G'ulom aka-ni egiz o'g'illari – Hasan va Husan Ahmedovlar otasining izidan ketishga qaror qilishdi. Ular ayni kunlarda ichki ishlar organlariga xizmatga kirish uchun hujjat topshirishgan.

Tadbir so'ngida G'ulomjon Ahmedovga an'anaga ko'ra, milliy to'n kiydirildi. O'z navbatida, pensiyaga kuzatilayotgan xodim kelgusida ham xizmat joyiga kelib turishini, qo'lidan kelgan yordamini ayamasligini, shuningdek, samimiy hurmat-e'tibor uchun minnatdorligini bildirdi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

FARZAND YUTUG'INING
SURURI TOTLI BO'LARKAN

Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan mukofotlangan bir guruh osoyishtalik posbonlari orasida «Jasorat» medali sohibi, Toshkent shahar Chilonzor tumani IIOFMB Tezkor-qidiruv xizmati katta tezkor vakili, podpolkovnik To'liqinjon Rahimov ham bor.



Odatdagidek kundalik xizmat vazifalari bilan bo'lib, bundan be-

xabar qolgan qahramonimizga Andijon viloyatidan kursdoshi, podpolkovnik

Azizbek Minosiddinov birinchilar qatorda qo'ng'iroq qilib qutlaydi. Shundan keyin birin-ketin telefonlar, tabriklar... Bu quvonchli xabardan, ayniqsa, To'liqinjonning ota-onasi va yaqinlarining sevinchiga sevinch qo'shilib, boshlari osmon qadar yuksaldi.

– Farzandingiz yutuqlarining sururi juda totli bo'larkan, – deydi podpolkovnikning onasi Muyassar opa. – Medalni qo'limga olarkanman, axir bu hammaga ham nasib etavermaydi-ku, deya bolamni bag'rimga bosdim. Bergan tarbiyamiz va o'g'itlarimiz zo'ye ketmaganidan ich-ichimdan sevindim.

Podpolkovnik To'liqinjon Rahimov IIV Akademiyasini tugatib, ilk xizmat faoliyatini Chilonzor tumani IIB JQB-dan boshlagan. Ustozi, podpolkovnik Parda Jiyanovning etagidan tutib, oliy ta'lim muassasasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamladi, tajriba orttirdi. O'zining xulqi, odobi, intizomga

rioya qilishi va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga bo'lgan intilishi bilan rahbariyatning nazariga tushdi. Yillar mobaynida «zuvalasi pishgan» xodim ko'plab jinoyatlarni «issiq izida» ochishda o'z hissasini qo'shganligi ayni haqiqat.

– Sohada faoliyat yuritayotganimga o'n ikki yildan oshdi, biroq bu yil men uchun juda omadli keldi, – deydi podpolkovnik To'liqinjon Rahimov. – Ushbu yuksak mukofotning mas'uliyatini chuqur his etib, yanada shijoat va g'ayrat bilan xizmat qilishim lozim. Chunki Prezidentimiz va xalqimiz men kabi ko'p sonli osoyishtalik posbonlariga ishonch bildirgan. Ko'ksimdagi yuksak mukofotni oqlash va unga munosib bo'lish uchun sidqidildan xizmat qilishga harakat qilaman.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

SULOLA

BIR OTANING UCH PAHLAVONI

Hayotda farzandlariga har jihatdan namuna bo'lgan otasining izidan borgan to'ng'ich o'g'il Murodixon yoshligidan padari buzrukvori, iste'fodagi mayor Ayubxon To'rayev shug'ullanib kelgan yunon-rum kurashiga mehr qo'ydi. Avvaliga viloyat va respublika chempionatlarida g'oliblikni bermay kelayotgan o'smir 10-sinfda o'qib yurgan kezlari dayoq, Qirg'izistonning Bishkek shahrida o'tkazilgan yoshlar o'rtasidagi xalqaro turnirda o'z vazn toifasida shohsupaning eng yuqori pog'onasini band etib, sport ustaligiga erishdi. M. To'rayevning IIV Akademiyasiga imtiyozli ravishda kursantlikka qabul qilinishi o'g'li erishayotgan yutuqlaridan o'zida yo'q xursand bo'lib yurgan otasi, quvonchiga yana bir quvonch bo'lib qo'shildi.

Ustozlaridan puxta bilim olish bilan birga, sportning sambo turi bilan ham astoydil shug'ullangan yigitcha ketma-ket 4 marotaba O'zbekiston chempioni, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalar g'olibi hamda ushbu sport turi bo'yicha mamlakatimiz kubogi sohibiga aylandi. Akademiyani ana shunday muvaffaqiyatlar bilan tamomlagan Murodixon mazkur ta'lim dargohida

qolib, yoshlarga kasb sirlarini o'rgatarkan, tinimsiz izlanishlari tufayli sambo va jangovar sambo bo'yicha xalqaro toifadagi hakamlik huquqini ham qo'lga kiritdi. Shu davr mobaynida 5 marotaba jahon va 8 marotaba Osiyo chempionatida hamda 10 marotabadan ortiq jahon kubogi musobaqalarida hakamlik qilib, o'zining yuksak iste'dodi va salohiyati bilan yurtimiz dovru'g'ini dunyoga tanitib kelmoqda. Bundan



tashqari, mazkur sport turi bo'yicha mamlakatimizda o'tkaziladigan turli tadbirlarda ham adolatli hakam sifatida nom qozondi.

Bugungi kunda podpolkovnik M. To'rayev IIV Malaka oshirish instituti jismoniy va jangovar tayyorgarlik sikli boshlig'i sifatida tinglovchilarga amaliy ko'nikmalarni o'rgatish barobarida, ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan sambo, jangovar sambo va qo'l jangi bo'yicha to'garak mashg'ulotlarini ham muntazam tarzda olib borib, yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda.

M. To'rayevning ikkala ukasi Muhammadxon va Alisherxonlar ham otasi va akasiga havas qilib, osoyishtaligimiz posbonlari bo'lish bilan birga, sportda ham o'z o'rnini topdi. Ya'ni, hozirda iste'fodagi mayor Muhammadxon To'rayev uzoq yillar

davomida ichki ishlar organlarining maxsus vazifalarni bajaruvchi otryadlarida xizmat qilish barobarida, qo'l jangi va jangovar sambo bo'yicha mamlakatimiz chempionligini ham qo'lga kiritib, sport ustaligiga erishdi. Alisherxon ham akalaridan aslo qolishmay, IIV Akademiyasida o'qib yurgan paytidayoq jangovar sambo bo'yicha o'z vazn toifasida jahon chempionatining bronza medalini qo'lga kiritib, xalqaro toifadagi sport ustasi maqomini egalladi. Bugungi kunda Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida IIB boshlig'i o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsatayotgan A. To'rayev sportni o'zining eng yaqin hamrohi deb biladi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.



Республика Каракалпакстан

Во дворце культуры Каракалпакского государственного университета им. Бердаха состоялась церемония награждения победителей и лауреатов каракалпакского республиканского этапа конкурсов «Женщина года» и «Активистка гендерного равенства»

Конкурсы призваны выявить соотечественниц, активно участвующих в общественной жизни, популяризировать опыт их работы, достойно стимулировать тех, кто является примером в воспитании детей, обеспечении благополучия и уюта в семье.

В числе лауреатов и старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ отдела внутренних дел Нукусского района подполковник Рита Сарманова. Она признана лучшей в номинации «Преданная Родине женщина года» («Йилнинг энг Ватанпарвар аёли»).

– В Нукусском районе проживает более 56 тысяч человек, из них свыше 26 тысяч женщины, – говорит подполковник Р. Сарманова. – Благодаря целенаправленным мерам удалось существенно снизить преступность среди женщин. Посредством выдачи охранных ордеров обеспечены права и интересы 76 гражданок, пострадавших от притеснений и насилия. Высокая оценка воодушевляет. Быть в числе лучших ко многому обязывает.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



Молодежь — наше будущее

ИДИ К ПОСТАВЛЕННОЙ ЦЕЛИ

Проводимая в Узбекистане молодежная политика направлена на воспитание гармонично развитого подрастающего поколения, обладающего не только разносторонними знаниями, но и умеющего самостоятельно, творчески мыслить.

Недавно в Национальном центре Республики Узбекистан по правам человека состоялась церемония награждения победителей конкурса «Образование и инновации в области прав и свобод человека». В конкурсе, организованном в связи с 75-летием Всеобщей декларации прав человека, участвовало порядка 180 претендентов. В номинации «Автор лучшей инновационной идеи по правам человека» первое место занял курсант 224-й учебной группы Академии МВД Тошмурод Абдурахмонов.

– Я представил проект создания летних школ для старшеклассников по фор-

мированию у них знаний в области прав человека, повышению правовой культуры, – делится Тошмурод. – Признателен наставнице – кандидату юридических наук, доценту, подполковнику Гулчехре Тастанбековой, всем педагогам за поддержку, ценные советы.

Отметим, что это не первая победа Т. Абдурахмонова в престижных конкурсах. Участвуя в Общественном экзамене, проходившем под эгидой Министерства юстиции в честь 31-й годовщины Основного закона страны, он уверенно прошел в финал и занял почетное второе место. А его публикация

на конкурсе научных статей, организованном НИИ развития цифровых технологий и искусственного интеллекта, названа в числе трех лучших и отмечена специальным дипломом.

Курсант Т. Абдурахмонов уроженец Мирзаабатского района Сырдарьинской области. С выбором будущей профессии определился еще в период обучения в Сырдарьинском академическом лицее МВД. Он уверенно идет к поставленной цели – стать высококвалифицированным следователем, обеспечивать в обществе верховенство закона.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.



Женщины в погонах

УСЛЫШАТЬ СЕРДЦЕМ

Старший инспектор по вопросам женщин УКД ОВД Янгихаётского района столицы подполковник Лола Шарипова не знает усталости, стремится, чтобы правонарушений среди соотечественниц на вверенной территории не было совсем.


Лола Шарипова в органах внутренних дел почти два десятилетия. Окончив Академию МВД, была инспектором по делам несовершеннолетних в ОВД города Бухары. Первый наставник старший инспектор профилактики капитан Нормурот Барраев научил ее тонкостям профессии. Далее она продолжила службу на должности командира отряда в Академии МВД, старшим инспектором профилактики правонарушений ОВД Уртачирчикского района Ташкентской области.

В Янгихаётском районе 30 махаллей. Каждое утро старшего инспектора начинается с посещения дежурной части, где первым делом идет разбор заявок, поступивших за сутки. В ее подчинении 4 инспектора по вопросам женщин, которые работают на своих участках. Все заявки тщательно проверяются и регистрируются.

За этот год женщинам, нуждающимся в защите, выданы сто охранных ордеров. Ежемесячно совместно с районным хокимиятом,

Комитетом семьи и женщин проводятся мероприятия для женщин махаллей. На них разъясняются суть и содержание Закона «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» и других нормативно-правовых документов, рассматриваются вопросы защиты прав и интересов женщин, предотвращения насилия, дальнейшего повышения их статуса в обществе, обеспечения гендерного равенства.

Мардона БАХТИЯРОВА.





Har birimizning murod-u maqsadimiz, orzu-havaslarimiz Vatan gul-lab yashnasagina ro'yobga chiqadi. Bu esa birinchi navbatda tinchlik-osoyshtalikka, oldimizga katta maqsadlarni qo'yib, qo'lni-qo'lga berib, hamjihatlik bilan fidokorona ishlashimizga bevosita bog'liq.

**Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni.**

FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

JASORATGA UYG'UN HAYOT



1972-yilda Toshkent politehnika institutini tamomlagan Po'lat Yo'ldoshevning kelajak rejasi aniq edi, institutda qolib, ilmiy ish qiladi. Shu maqsadda hujjatlarini aspiranturaga topshirdi. Bir vaqtning o'zida talabalarga dars bera boshladi.

Ammo ko'p o'tmay Ichki ishlar vazirligiga suhbatga chaqirishdi. U bilan suhbat o'tkazgan mas'ul yo'l harakati xavfsizligi tizimiga mutaxassislar zarurligi, Po'latni xizmatga jalb qilish niyatidaligini bildirdi. Ichki ishlar organlari xodimi formasi yarashib turgan suhbatdoshining soha vakillari safida bo'lish sharafligiga ekanligiga oid so'zlari yigitning taqdirini o'zgartirib yubordi, desak xato bo'lmaydi.

Binobarin, Po'lat Yo'ldoshev Sirdaryo viloyatida uch oylik stajirovkani o'tab, Jizzax shahrida davlat avtomobil nazorati inspektori lavozimida faoliyat ko'rsata boshladi. Jizzax viloyati hududida amalga oshirilgan qurilishlar hamda cho'lni o'zlashtirishga doir ishlarga hissa qo'sha boshladi.

Ta'kidlash kerak, o'sha yillarda Jizzaxga sobiq ittifoqning barcha hududlaridan ishchi va haydovchilar jalb etilgandi. Pul ilinjida kelganlarning bir qismi muqaddam sudlanganlar yoki tavakkal shamoli quvib kelgan insonlar edi. Tabiiyki, bunday

muhitda tez-tez jinoyatlar ro'y berardi. Mazkur jihat ichki ishlar organlari xodimlaridan jasorat va matonat talab qilardi.

Xususan, u bir safar Toshkent viloyatida bosqinchilik sodir etib, Samarqand shahriga qochayotgan uch jinoyatchidan ikki nafarini tutishga muvaffaq bo'lgan. O'sha damda to'pponchadan ketma-ket uzilgan o'qlar Po'lat Yo'ldoshevni cho'chitmagandi. Aytgancha, jinoyatchilar ushlangach, ularning poytaxt hamda Toshkent viloyatida yuz bergan 9 ta bosqinchilikka aloqadorligi aniqlandi. Xuddi shunday, gumonlanuvchilarning ma'lumoti asosida Toshkent shahrida yana bir bosqinchilar guruhi faoliyatiga chek qo'yildi.

Shu kabi voqealar qahramonimizni po'latdek tobladi. Natijada 1990-yilda viloyat IIB YHXB boshlig'ining o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. 1994–1997-yillarda Zomin tumani ichki ishlar bo'limini boshqardi. 2000-yilda esa viloyat IIB Jazoni ijro etish bo'limi boshlig'i lavozimida, polkovnik unvonida pensiyaga chiqdi.

75 yoshni qoralayotgan Po'lat Yo'ldoshevning to'rt nafar farzandi, 14 nafar nabirasi va bir evarasi bor. Otaxon avlodlari kamolidan quvonib, ularni suyib yashamoqda.

**Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.**

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

TENGQURLARIGA O'RNAK

Bolaligidan tirishqoqlik, bilimga chanqoqlik xislatlari bilan ustozlari nazariga tushgan Barat Koson tumanidagi 30-maktabning 9-sinfini bitirgach, dilidagi orzusini otasi Rahim aka va onasi Mohira opaga bildirdi: «Akam kabi yurt posboni bo'la-man!». O'g'lidagi qat'iyatni sezgan ota-onasi unga omad tilashdi.

O'tgan yili IIV Qashqadaryo akademik litseyiga hujjat topshirgan Baratning mazkur ta'lim muassasasi o'quvchilari qatoridan joy olishi oson kechmadi. Tibbiy ko'rik, bilim va dunyoqarashni aniqlashga qaratilgan suhbatlar, psixologik test, imlo, grammatikaga oid bilimlarni baholash maqsadida o'tkazilgan yozma ish, adabiyotga oid savollar, jismoniy tayyorgarlik, bilim darajasini belgilovchi yakuniy test sinovidan o'tib, o'quvchilar safidan joy oldi.

O'tgan davrda Barat litseyda barcha fanlar bo'yicha yuqori

natijalarni qo'lga kiritish bilan birga, o'tkazilgan turli bilim sinovlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Jumladan, ikkita insholar tanlovida faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

– Bilim va sportda yuqori natijalarga erishgan 2 nafar o'quvchimiz Ichki ishlar vaziri stipendiati bo'ldi, – deydi IIV Qashqadaryo akademik litseyi direktori, podpolkovnik Komil Nazarov. – 1-bosqich o'quvchisi Barat Baratov ana shunday o'quvchilardan biri. U hamma fanlardan a'lo baholarga o'qib, tengdoshlariga o'rnak bo'lmoqda.

Namunali xulqi, a'lo o'qishi bilan ajralib turgan Barat sportning futbol turi bilan muntazam shug'ullanib keladi. Guruhlar va kurslar o'rtasida o'tkazilayotgan musobaqalarda jamoasi bilan g'oliblikni qo'lga kiritmoqda.

**Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.**

Qashqadaryo viloyati.



Ветераны — наша гордость

ОПЫТ, НАКОПЛЕННЫЙ ГОДАМИ

Хотя возраст у ветеранов почтенный, они находятся на переднем крае, показывают пример беззаветного служения Родине. Активное участие в общественной жизни принимает и подполковник в отставке Абдукодир Ибрагимов.

После окончания Андижанского государственного педагогического института языков А. Ибрагимов несколько лет проработал учителем в школе № 6 города Андижана.

В 1991 году его приняли на службу в органы внутренних дел и назначили «детским» инспектором Андижанского ГОВД. В дальнейшем А. Ибрагимов работал старшим инспектором профилактики, начальником отделения профилактики правонарушений Андижанского ГОВД, старшим инспектором Управления профилактики правонарушений УВД Андижанской области, заместителем начальника Пахтабадского РОВД, заместителем начальника Управления профилактики правонарушений УВД области. В 2009 году в звании подполковника вышел на заслуженный отдых.



На снимке: А. Ибрагимов в дежурной части организационного управления УВД Андижанской области со старшим инспектором подполковником А. Сиддиковым и помощником дежурного старшим сержантом И. Эргашевым.

За годы службы ветеран воспитал ряд учеников, в числе которых подполковники Назиржон Уринбоев, Нодирбек Комилов, Хай-

рулло Ахмедов, Авазбек Тухтамуродов и др.

В настоящее время А. Ибрагимов работает в Андижанской школе на-

ездников Национальной гвардии, является заместителем директора.

— Школу наездников посещают подростки от

12 до 18 лет, — рассказывает Абдукодир ака. — Ребята занимаются конным поло, канкуром, троеборьем, завоевывают призовые места в соревнованиях. Занятия проходят 6 дней в неделю под руководством 4 опытных тренеров.

— У Абдукодира Ибрагимова неугомонный характер, — говорит председатель Совета ветеранов УВД Андижанской области подполковник в отставке Давронбек Юсупов. — Он активный участник встреч с молодыми сотрудниками, делится опытом.

Вместе с супругой, Ферузой, они воспитали четверых сыновей. Один из них, подполковник Хусниддин Ибрагимов, пошел по стопам отца, служит старшим инспектором профилактики. В большой семье Ибрагимовых 10 внуков.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.

■ Сырдарьинская область

ВАЖНЕЙШИЙ УЧАСТОК РАБОТЫ

Пропаганда — действенное средство в профилактике правонарушений. Проверенный на практике метод широко применяется сотрудниками Управления безопасности дорожного движения СОБ УВД Сырдарьинской области. С внедрением системы «махаллабай», инспекторы делают акцент на этот участок работы.



Улугобод — одна из отдаленных махаллей в Гулистане. Ее население шесть тысяч человек. В ходе очередного посещения махалли первым делом осмотрели состояние дорог и наличие соответствующих знаков. В беседе граждане высказались за установление дополнительных знаков, регулирующих

движение транспорта возле дошкольных и общеобразовательных учреждений. Проверив обоснованность доводов на месте, инспекторы внесли соответствующее предложение в городской хокимият.

Проведен осмотр транспортных средств населения, пришедших в непригодное состояние.

В махалле Улугобод имеются три пункта технического обслуживания автомобилей. Здесь работают более десяти мастеров. Им был разъяснен порядок ремонта транспортных средств, попавших в ДТП. Кроме того, водителям и специалистам сервисных мастерских даны пояснения, в каких случаях допускается

изменение технических характеристик автомобилей.

Содержательно прошли встречи с учащимися школ. Инспекторы разъяснили ребятам причины наиболее часто фиксируемых ДТП, ответили на многочисленные вопросы.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.



INSON QADRI UCHUN

OBOD XONADON – OBOD KO‘CHA – OBOD MAHALLA

Rishton tumani-
dagi «Pandigon»
mahallasi hududida
o‘tayotgan yilda «Obod
xonadon – obod ko‘-
cha – obod mahalla»
mezoni asosida keng
ko‘lamli bunyodkor-
lik ishlari olib borildi.
Natijada mahalla bu-
tunlay yangicha qiyofa
kasb etdi.

– Mahallamizda-
gi 755 ta xonadon
4150 nafar aholi is-
tiqomat qiladi, – dey-
di mahalla fuqarolar
yig‘ini raisi Maqsudali
Mahkamov. – Xayrli
ishlarni amalga oshi-
rish jarayonida, avva-
lo, toza ichimlik suvi,
elektr energiyasi va
tabiiy gaz ta‘minoti,
ichki yo‘llarni ta‘mirlash borasida-
gi muammolarni bartaraf etishga



katta e‘tibor qaratildi. Umumta‘lim
maktabi va oilaviy shifokorlik
punkti binolari qayta ta‘mirlanib,

zamonaviy ko‘rinishga keltirildi.
Shu bilan birga, ehtiyojmand oila-
larga moddiy va ma‘naviy ko‘mak
berildi.

– Oilaviy shifo-
korlik punktimizga
qo‘shimcha xonalar
qurib berishdi. Zarur
tibbiy jihozlar keltirildi.
Qisqasi, aholiga sifatli
tibbiy xizmat ko‘rsatish
uchun barcha sha-
roitlarga ega bo‘ldik,
– deydi «Pandigon» oi-
laviy shifokorlik punk-
ti katta hamshirasi
Sahobat To‘ychiyeva.

Mahalladagi
12,6 km elektr tar-
mog‘ini modernizatsiya
qilish, 481 ta tayanch
ustuni, 3 ta trans-
formator o‘rnatish,
11,5 km masofadagi
yo‘llarni ta‘mirlash,

7,4 kmga ichimlik suvi tarmog‘ini
tortish, 2,5 km masofali piyodalar
yo‘lagini barpo etish ishlari mu-
kammal bajarildi.

– Men obodlik kasb etgan
mahallada ish boshladim, – deydi
profilaktika inspektori, leytenant
Abror Otajonov. – Birinchi nav-
batda, mahalla aholisi bilan yaqin-
dan tanishib, ularning kundalik
turmush tarzi va mavjud muam-
molarini «xonadonbay» usulida

o‘rganishga harakat
qilyapman. Profilaktik
nazoratda turadigan
va jinoyat sodir etish-
ga moyil shaxslar bi-
lan ishlashda mahalla
faollari va katta hayot
tajribasiga ega xodim-
lar menga yaqindan
yordam berishyapti.

Aholi bandligini
ta‘minlash, oilaviy
tadbirkorlikni yo‘lga

qo‘yish maqsadida fuqarolar-
ga imtiyozli kreditlar, yoshlarga
subsidiyalar ajratildi, mahalladagi
ayollarning bandligini ta‘minlash
uchun yangi tikuvchilik sexi ishga
tushirildi. Tomorqalardan samarali
foydalanish, xonadonlarni obod
qilish borasida turli targ‘ibot tad-
birlari o‘tkazilishi natijasida mahal-
laning drayveri sifatida ko‘katchilik
tanlanib, 400 dan ortiq xonadon-
da ana shu mahsulotni yetishtirish
boshlandi.

Madaniy-ma‘rifiy tadbirlar,
 intellektual o‘yinlar, sport muso-
baqalari pandigonlik yoshlarning
bilimini boyitayotgan bo‘lsa, «Uch
avlod» uchrashuvlari nuroniylar
va yoshlar o‘rtasidagi ma‘naviy
rishtalarni yanada mustahkam-
lashga xizmat qilmoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.

Farg‘ona viloyati.



PSIXOLOG MASLAHATI

ISHONCHNI QAYTARING

Kishi qanday qilib o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishi mumkin? Bu psixologlarga tez-tez beriladigan savollardan biridir.

To‘siqlar va hayotiy vaziyatlarga qaramay, maqsadga erishishga imkon beradigan fazilat bu – ishonch. Shunday ekan, o‘zingizga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishni xohlasangiz, quyidagi maslahatlarga quloq tuting:

1. Nima uchun o‘zingizga bo‘lgan ishonch yo‘qligini tahlil qiling. Ishonchning yo‘qolishi yoshlikka ham taqalishi mumkin. Ota-onalar ko‘pincha farzandini boshqa bolalarga taqqoslaydi. Bu holat esa farzandning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi

yoki asta-sekin yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

2. Istaklaringiz haqida to‘g‘ridan-
to‘g‘ri gapirishga harakat qiling. Deylik,
hamkasbimning oldiga boraman va
unga: «Hisobotni tayyorlashda menga
yordam bera olasanmi?», deyman.

Hamkasbim esa menga: «Yo‘q! Senga
bu borada yordam bera olmayman»,
deb javob beradi. Bu yerda yakuniy
qaror qabul qilishni hamkasbimga
o‘tkazib qo‘yyapman. Aslida esa,
savolni boshqacharoq qo‘yishim kerak.
Masalan: «Hisobotni tayyorlashda
menga yordam ber, iltimos».

3. «Men o‘ylaymanki», «menimcha»,
«mening fikrimcha» kabi so‘zlar sizni
o‘ziga ishonmaydigan shaxs sifatida
ko‘rsatib beradi. Shu sababli ularni
lug‘atingizdan olib tashlang.



4. Va eng asosiysi, o‘ziga ishongan
odam, o‘zini borligicha qabul qiladi.
Unutmang, yaxshi natijaga erishish
o‘z qo‘lingizda!

Naufal TURG‘UNOV,
katta leytenant.

O'QUV YIG'INLARI

MALAKA VA KO'NIKMA UYG'UNLIGIDA



IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o'qituvchisi, podpolkovnik Bahrom Turg'unboyev tinglovchilarga dars berish jarayonida.

Yaqinda ichki ishlar organlarining safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga tayinlangan xodimlarni boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv dasturlari asosida o'qitish jarayonlari bilan yaqindan tanishish maqsadida Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tumanida joylashgan Ichki ishlar vazirligi O'quv-dala markazida bo'ldik.

Ushbu ta'lim dargohida ilk kasbiy ko'nikmalarni hosil qilayotgan tinglovchilar kunlik ijtimoiy-siyosiy yangiliklar tahlilidan tortib, o'z sohasining ustalari bo'lmish tajribali pedagoglar va shu bilan bir qatorda yetuk amaliyotchilardan saboq olishmoqda. Mashg'ulotlar davomida eng zamonaviy o'quv metodlari qo'llanilishi, xodimlarning murakkab vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlari kerakligi hamda boshqa jarayonlar jonli misollar, taqdimotlar orqali ko'rsatilishi jozibadorlikni ta'minlovchi asosiy jihat desak xato bo'lmaydi.

Safda turish tartibi, joyida harakatlar, rahbarga murojaat etishdagi bajariladigan amallar, guruh tarkibida ishlash va boshqa bosqichlar belgilangan jadvalga monand amalga oshiriladi. Dam olish kunlariga ham ma'naviy-ma'rifiy reja ishlab chiqilib, zakovat, kitobxonlik, sport tadbirlari o'tkaziladi.

«Tizimga yangi kirib kelgan hamda boshlang'ich kasbiy tayyorgarlikni o'tayotganlar eng avvalo intizomga qat'iy rioya qilishlari zarur. Keyin jangovar tayyorgarlik masalasi ham bor. Agar jangovar tayyorgarlik mukammal bo'lsa, oldinga qo'yilgan barcha vazifalar zo'r bajariladi. Shuningdek, har bir xodim o'z huquqlarini yaxshi bilishi talab etiladi. O'z huquqlari bilan bir qatorda fuqarolar huquqlarini ham hurmat qilishi shart. Negaki, ular doimiy ravishda aholi bilan bevosita ishlashadi!» – deydi Malaka oshirish instituti boshlig'ining

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyatidan ajralmagan holda kasbiy bilim ko'nikmalari va mahoratlarini doimiy ravishda yuksaltirib borish zamon talabiga aylanib ulgurgan. Soha vakillarining muttasil malakasini oshirish imkoniyatini yaratib beruvchi mutloq yangi tizimini takomillashtirish maqsadida IIV Malaka oshirish instituti mustaqil ta'lim muassasasi sifatida ichki ishlar organlari ofitserlar va safdorlar tarkibidagi xodimlarning malakasini oshirish bilan bog'liq o'quv faoliyatini olib boradi.



o'rinbosari – saf qismi boshlig'i podpolkovnik Yoqub Saydullayev.

Ichki ishlar vazirligi O'quv-dala markazi oshxonasidagi taomlar sifati a'lo darajada. Vitamin va mineralarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlanayotganligi ijobiy natija bermoqda. Oshxonada rahbar-xodimlar, boshlang'ich

kasbiy tayyorgarlikni o'tayotganlar, umuman olganda, barchaga mahsulotlar kaloriyasi, sifati bir xil taqsimlanadi. Bu esa jismoniy va jangovar tayyorgarlikni maromida ushlab turishga zamin yaratadi. Salomatlik haqida gap ketar ekan, ushbu masalaga yuzaki yondashib bo'lmaydi. Shu sababdan bu yerdagi

Darhaqiqat, osoyishtalik posbonlarining kasbiy malakasini, huquqiy bilimlarini oshirish, ularning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, xodimlar bilan ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yanada, kuchaytirish kabi vazifalarni bajarishda kitob eng yaqin ko'makchi bo'lishi



tibbiyot punktida ham barcha zarur choralar ko'rilgan. Mavsumiy gripp-u shamollashlarning alomatlari sezilsa darhol bartaraf etishga oshiqiladi. Dori-darmonlar bilan ta'minlanishda muammolar kuza-tilmaydi.

shubhasiz. Zero, ichki ishlar organlari xodimlari doimo o'z ustida ishlashi, bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishi zarur. Biz tashrif buyurgan manzilda kitob yarmarkasining tashkil etilganligi yuqoridagi amaliy harakatlarga hamohangdir.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

TO'MARIS IZDOSHLARI

MASHHURA – XALQARO KONFERENSIYA G'OLIBI

Sayxunobod tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, serjant Mashhura Abdumalikova ta'limga ilmiy yondashuvga bag'ishlangan xalqaro konferensiya doirasida o'tkazilgan tanlovda 1-o'rinni egalladi. Samarqand davlat arxitektura va qurilish institutida bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy konferensiyada dunyoning yigirmadan ortiq davlatlaridan kelgan yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi. Mashhura anjumanda «Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini ijtimoiy-psixologik bartaraf etish» mavzusidagi ilmiy ishi bilan qatnashdi. E'tiborlisi, uning ilmiy ishi amaliyot va ilmning uyg'unlashtirilgani bilan alohida e'tirof etildi.

Serjant M.Abdumalikovaning ilmiy ishida oilaviy nizolarni bartaraf etishning ikki omili alohida ajratib



ko'rsatilgan. Birinchisi – psixologik, ikkinchisi – ijtimoiy. Hatto rivojlangan davlatlarda ham gender tenglik, ayollarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha muammolar uchraydi. Dunyo xalqlarining madaniyati, jamiyatning rivojlanish darajasiga qarab, turli mamlakatlarda bu masala turlicha

ahamiyat kasb etadi. Yosh xodimning ilmiy ishida ham bu holat e'tiborga olingan. U ayollarning millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, zo'ravonlikdan himoya qilishning yangi psixologik usullarini taklif qilgan. Bunda ikki jins vakillarining o'ziga xosliklari, ayolning oilada, jamiyatdagi mavqeyiga alohida e'tibor qaratilgan.

Darvoqe, Mashhura asli jizzaxlik. 2012-yilda Sayxunobod tumani-ga kelin bo'lib tushgan Mashhura mehnat faoliyatini pedagoglikdan boshlab, keyinchalik mahallada xotin-qizlar faoli sifatida faoliyat ko'rsatdi. 2023-yilning boshidan buyon tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimida xizmat qiladi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.


YULDUZNING YULDUZLI ONLARI

Podpolkovnik Yulduz Qalandarovaning hayoti va xizmat faoliyati bilan tanishar ekanmiz, uning hayot sinovlaridan sabr va matonat bilan o'tganiga guvoh bo'lamiz. Yulduz sakkiz yoshida ota mehridan ayrildi. Oila tashvishi, farzandlar tarbiyasi onasi Rohatoy opaning zimmasida qoldi. U qanchalik qiyin bo'lmasin, farzandlarining o'qimishli, ilmi bo'lishi uchun astoydil harakat qildi. Qolaversa, Rajabboy akaning ichki ishlar organlarida xizmat qilgani farzandlari – Ruslan va Yulduzning kelgusi hayotida ham muhim o'rin tutdi. Ular ota kasbini davom ettirishga ahd qilishdi va IIV Akademiyasida tahsil olishdi.

Yulduz Qalandarova ilk xizmat faoliyatini Transportdagi IIB Urganch tarmoq Ichki ishlar bo'limi VEO'N va HPG inspektori lavozimida boshladi.

U xizmat faoliyati davomida temiryo'llarga yaqin hududlarda joylashgan mahallalarda, o'quv muassasalarida uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazdi. Farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi ota-onalar hamda tarbiyasi og'ir bolalar bilan alohida profilaktik ishlar olib bordi. Bu, o'z navbatida, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatlar sodir etilishi keskin kamayishida muhim o'rin tutdi.

Keyinchalik Yangibozor tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimida ham samarali xizmat qildi. Ayni kunda esa Urganch shahar IIOFMB JXX HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha katta inspektor-psixologi. Sohada 16 yildan buyon xizmat qilib kelayotgan podpolkovnik Yulduz Qalandarova ichki ishlar organlari xodimalari o'rtasida o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlarda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va



sport musobaqalarida ham faol ishtirok etib kelmoqda.

19–20-oktabr kunlari Toshkent shahrida huquqni muhofaza qiluvchi organlar jamoalari o'rtasida «Vatan mehri yuragimizda» shiori ostida tashkil etilgan «To'maris izdoshlari – 2023» respublika tanlovida IIV jamoasi tarkibida faxrli ikkinchi o'rinni egalladi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

MILLIONLARGA
SOTILMAGAN BURCH

Navbatdagi ish safari-dan qaytgan Ismat Otashov (ism-sharifi o'zgartirildi)da hamkasblari tunda yo'lga chiqmaslikni so'rashdi. Buning boisi, vaqt allamahol bo'lib qolganidan tashqari boshqa sababi ham bor edi: u «charchoqni chiqarish» bahonasida spirtli ichimlik iste'mol qilgandi. Ammo Ismat Qo'ng'iro't tumani-dagi bazaga borish uchun o'zi boshqarib yurgan yuk avtomashinasi ruliga o'tirdi.

Tunda hech kim sezmaydi degan xayolda yo'lga chiqqan I.Otashov Mo'ynoq tumani «Uchsoy» ovul fuqarolar yig'ini hududidan o'tib borar ekan, yo'lda xizmat vazifasini bajarib turgan YPX inspektorini ko'rdi-yu, kapalagi uchdi. Tabiiyki, bemahalda harakatlanib kelayotgan yuk avtomashinasi Mo'ynoq tumani IIB Yo'l harakati xavfsizligi guruhi katta inspektori, leytenant Radik Kenesbayevda shubha o'yg'otib, uni to'xtatib tekshirib ko'rishga qaror qildi. Suhbat chog'ida hay-

dovchining mastligi aniqlanib, unga nisbatan tegishli tartibda hujjatlar rasmiylashtirila boshlandi. Mashina vaqtinchalik jarima maydoniga joylashtiriladigan bo'ldi.

Paytdan foydalanmoqchi bo'lgan I.Otashov inspektorga ishni «bosdi-bosdi» qilish uchun pora taklif qildi. Leytenant R.Kenesbayev esa haydovchiga ushbu harakati qonunga zid ekanini, buning uchun jinoiy javobgarlik borligini ta'kidladi. Shunga qaramay, I.Otashov bilgani-dan qolmadi. Keyinchalik bu ishini inspektorning xizmat xonasiga borib ham davom ettirdi.

... O'zbekiston Respublikasi IIV SHXBB Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasi va boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda I.Otashov leytenant R.Kenesbayevga 10 mln. so'm miqdoridagi pulni pora tariqasida berayotgan paytda qo'lga olindi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

QONUN, MAFKURA VA MA'NAVIYAT

Insoniyat taraqqiyotidan ma'lumki, qonun jamiyat va davlat munosabatlari eng muhim omillaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solishda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligini ta'minlash davlatning muhim va ajralmas belgisi hisoblanadi.

Bugun yurtimizda aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, inson qadrini ulug'lash, jamiyatda qonun eng muhimligini ta'minlashga ustuvor vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, jamiyat va mamlakat hayotida qonun muqaddas hisoblanib, u yuksak maqomga ega, unda xalqning irodasi, xohish va istaklari, manfaat va intilishlari mujassamdır.

Hozirgi globallashuv shiddati har qanday davlat taraqqiyotida qonunlarga rioya etish, eng avvalo, jamiyat hayotida adolat, insonparvarlik g'oyalari tarannum etishga zamin yaratadi. Insoniyat tarixida qonunlarning kashf etilishi jamiyat va davlat o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy norma hisoblangan.

Tarixan insonlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va o'zlarining ehtiyojlarini ta'minlashda qonunlarga itoat qilish talab etilgan. Qadimgi yunon olimi Afrotun ham jamiyatning alohida guruhlar va tabaqalari manfaatini yo'lida qabul qilingan qonunlar adolatga mos kelmasligini alohida ta'kidlab, mamlakat fuqarolarining mafkuraviy tarbiyasi qonunlarga itoatkorlik ruhini singdirishda muhim ekanligini e'tirof etgan.

Bugungi kunda jahon geosiyosiy maydonida kechayotgan globallashuv jarayonlarining kuchayishi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi dunyo miqyosida keskin burilish yasamoqda. Dunyoning turli mintaqada va davlatlarida kechayotgan aynanchi voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko'rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayoti-

ga bepisandlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayollik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda.

Ayniqsa, globallashuv sharoitida mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olayotgani ogoh, sezgir va hushyor bo'lishni talab etmoqda. Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli yovuz illat mafkuraviy xurujlar o'ziga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechtirish orqali «o'zgacha» mafkuralarni ongiga singdirishda namoyon bo'lmoqda. Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda ma'naviy tubanlik ta'siri oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi qator «ta'limotlar» oshkora, ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va asriy qadri-

ni ta'minlash va ma'naviy birlashuvi muhim ahamiyat kasb etgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham qonun ustuvorligini ta'minlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarini yanada yuksak o'ringa ko'tarishga dolzarb vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Chunki yon-atrofimizda yuz berayotgan hodisotlar ma'naviy-mafkuraviy ishlarining ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Davlatimiz rahbari o'z nutqlaridan birida: «Biz yangi O'zbekistonni barpo

Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalaridagi tub o'zgarishlarni qonun, mafkura va ma'naviyatga bo'lgan munosabatlarda ham ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hamda qonuniylik tamoyillarining so'zsiz ta'minlanishi, eng avvalo, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi. Zero, Konstitutsiya hamda qonun talablariga og'ishmay amal qilish xalqimizning yuksak



yatlarini zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida xalqimizning huquqiy va ma'naviy-mafkuraviy savodxonligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Zero, dunyo sahnida yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlar bizdan ogoh bo'lishni, fuqarolarimizning ongi va qalbini zabt etishi mumkin bo'lgan turli tahdidlardan himoya qilish zaruratini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, har bir xalqning taraqqiyotga erishuvida, avvalo, qonun ustuvorligi-

etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat, – deya ta'kidlagan edi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida qonun ustuvorligini ta'minlash shu bilan birga, fuqarolarimizning ma'naviy-mafkuraviy salohiyatini yuksaltirish xalqimizni buyuk va ulug'vor maqsadlar sari birlashuviga zamin yaratadi.

Ma'naviy saviyasini belgilaydi. Ma'lumki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishq jo'sh urgan, oriyatli, ma'naviy jasoratga ega odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz bugun mamlakatimizda qonun ustuvorligi ta'minlangan yuksak ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni quvnatib tursin. Shuni alohida qayd etish joizki, ma'naviyat – xalqimiz or-nomusini uyg'otuvchi beqiyos kuch, ozodlik, Vatanni sevish-

ga undovchi da'vatkor tug'yondir. Bugungi zamon shiddati har qaysi millat, xalqning kelajakda o'zligini saqlab qolishi uchun, eng avvalo, ma'naviyat masalasiga bo'ladigan tahdidlardan muntazam ravishda ogoh, sezgir va hushyor bo'lishi lozimligini ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari uqtirganidek, «milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, «chaqirilmagan mehmon» bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko'z yuma olmaymiz». Azaldan ma'lumki, insoniyat taraqqiyotida qachonki, beparvolik va loqaydlik hukm sursa, shu bilan birga, eng dolzarb muhim masalalar o'z holiga tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng o'z va zaif nuqtaga aylanishi oqibatida ma'naviy tubanlik illatlari tobora avj olishini teran anglash lozim.

Prezidentimiz ta'bi-bi bilan aytganda, «biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir. Mana shunday qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg'in qo'llab-quvvatlanayotgani ma'naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi».

Mansur MUSAYEV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori.



VATAN HIMOYACHILARI KUNI OLDIDAN

MALAKALI SHIFOKOR

Muslimbek bolaligidan shifokorlikka qiziqardi. O'smirlik pallasi esa uning qalbida Vatan himoyachisi bo'lish istagi ham tug'ildi. Shunda bir o'q bilan ikki quyanni urishga qaror qilib, Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi harbiy tibbiyot fakultetiga o'qishga kirdi.



2017-yilda Toshkent shahridagi harbiy qismlardan birida tibbiyot punkti katta shifokor-terapevti lavozimida ish boshlagan lavhamiz qahramoni IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlariga qarashli Navoiy shahridagi 7259-harbiy qismda tibbiyot punkti boshlig'i lavozimida faoliyatini davom ettirdi.

Hozirda esa tibbiy xizmat kapitani, Muslimbek Xolmatov Farg'ona shahridagi 7253-harbiy qism tibbiyot punkti boshlig'i. U shaxsiy tarkibning tibbiy ko'rigini tashkil etishga alohida e'tibor qaratadi. Chunki ayni ana shu tadbir jarayonida ko'pgina xastaliklarni erta aniqlab, oson davolash mumkin. Bundan tashqari, shifokor sifatida ambulatoriya qabulida ishtirok etib kelyapti.

Harbiy qism tibbiyot punktida bo'lgan va davolash muassasalariga joylashtirilgan bemorlarning sog'lig'ini doimiy nazorat qilib boradi.

Shaxsiy tarkibning ovqatlanishi, dam olish, xizmat vazifalarini bajarishi, xullas hayoti va faoliyati bilan bog'liq barcha jarayonlarda sanitariya me'yorlari bajarilishini nazorat qilib kelmoqda. Qolaversa, turli vaziyatlarda harbiy xizmatchilarga bir necha bor o'z vaqtida birinchi tibbiy yordam ko'rsatib, ularning hayotini saqlab qoldi. Demoqchimizki, lavhamiz qahramonini jamoada malakali shifokor sifatida hurmat qilishadi.

Farhod ERKINOV,
mayor.

ASLIDA BU BAYRAM
HAMMAMIZNIKI

*Qushlarning chug'uri daragi tongning,
Qadriga yeting – tinch o'tgan har onning,
El-yurt xizmatida yurgan insonning,
Aslida bu bayram hammamizniki.*

*Muallim maktabda dars berar yonib,
Unga kelajakni berdik ishonib.
Shogird yutug'idan ketar quvonib,
Aslida bu bayram hammamizniki.*

*Bemorga eng yaxshi davo qayda bor?
Undan shirin so'zni ayamang, zinhor.
Balki tabibdirsiz, balki shifokor,
Aslida bu bayram hammamizniki.*

*Sarhadlarda hushyor turar harbiylar,
Vatan muqaddasdir, bilar harbiylar,
Qutlasak, takrorlab aytadi ular:
«Aslida bu bayram hammamizniki».*

*Patrul-post xizmati xodimlari ham,
Tunu kun xizmatda, biz-chi xotirjam,
Biringiz akamsiz, biringiz ukam,
Aslida bu bayram hammamizniki.*

*Osmon yulduzlari bilan chiroyli,
Kecha kunduzlari bilan chiroyli,
Barchani birma-bir tabriklang, mayli,
Aslida bu bayram hammamizniki.*

Sherzod ABDUSAMADOV,
o'z muxbirimiz.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

BIR MUAMMOSI IKKI BO'LDI

«Qahramon» mahallasi hududida viloyat IIB JXX JTSB PPX xodimlari bilan tungi patrullik qilayotgan Sharof Rashidov tumani IIB 1-son ichki ishlar bo'limi huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi profilaktika inspektori, katta leytenant Iskandar Xaitovning e'tiborini o'zini shubhali tutayotgan fuqaro tortdi. Shu bois shaxsiga aniqlik kiritish maqsadida u ichki ishlar organlari tayanch punktiga olib kelindi.



Natijada fuqaro qonun himoyachilariga o'z ismi va familiyasini noto'g'ri aytgani aniqlandi. U Namangan viloyatining Pop tumanida tug'ilgan S.B. bo'lib chiqdi. Fuqaroning

uyali aloqa vositasi ko'zdan kechirilganida nima uchun shaxsini yashirmoqchi ekanligi ma'lum bo'ldi. Ya'ni, S.B. uyali aloqa vositasida bir qancha pornografik materiallar saqlab kelgan, bu ham yetmaganidek, ushbu materiallarni tarqatish bilan shug'ullangan.

Tabiiyki, katta leytenant Iskandar Xaitov mazkur qonunbuzarlik yuzasidan tegishli tartibda ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirishga kirishdi. Vaziyatning bunday rivoji S.B.ga ma'qul kelmadi va profilaktika inspektoriga 900 AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi. Bu pul evaziga u fuqaroning javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lguv-

chi holatdan ko'z yummoq'i kerak edi.

Biroq qonun himoyachisi bu taklifga rozi bo'lmadi, aksincha, S.B. ga ichki ishlar organlari xodimiga pora taklif qilish jinoyat ekanligini tushuntirdi. Shunga qaramay, gumonlanuvchi pul tiqishtirishda davom etdi.

Qisqasi, profilaktika inspektorining xizmat xonasida unga 800 AQSH dollari miqdorida pora bergan S.B. ashyoviy dalillar bilan xolislar guvohligida ushlendi. Oqibatda, hammani o'zi singari egri, deb bilgan shaxsning bir muammosi ikki bo'ldi.

O'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.



★ В преддверии Дня защитников Родины

ГОРЖУСЬ СЫНОМ!

Мой сын, Шерзодбек Худайбергенов, сотрудник органов внутренних дел. С юных лет он отличается трудолюбием, ответственностью, ставит перед собой цели и достигает их.

После окончания в 2015 году Ташкентского государственного транспортного университета работал на механическом заводе. В этот период принял твердое решение – служить в системе ОВД. Отец, Саломат ака, и я, поддержали сына, отметив, что профессия стража правопорядка почетна, однако путь этот полон испытаний, к ним надо быть готовым.


Шерзодбек уже шестой год служит на благо Отечества. В настоящее время он в звании старшего лейтенанта, является инспектором батальона сопровождения пассажирских поездов Департамента обеспечения безопасности на объектах транспорта и туризма МВД. Несет службу на скоростном поезде «Афросиаб», курсирующем между Ташкентом и Карши.

Каждый раз с нетерпением жду возвращения сына домой. Но я также знаю, что Шерзодбек выполняет важную работу – он на страже безопасности и спокойствия людей.

Олтиной КУЗИБАЕВА,
педагог.



★ Будни РОВД



«ЗЕЛЕНЫЕ» МАХАЛЛИ РАЙОНА

За одиннадцать месяцев в Вабкентском районе Бухарской области не зафиксировано ни одного преступления, связанного с мошенничеством, разбоем, умышленным нанесением вреда имуществу, торговлей людьми.

Общее количество преступлений, совершенных в районе, удалось сократить на 8,9 процента по сравнению с аналогичным периодом минувшего года. В разрезе других видов преступлений также достигнуты положительные результаты. Существенно сократились случаи нанесения средних и тяжких телесных повреждений, краж, преступлений среди несовершеннолетних, женщин, безработных и ранее судимых лиц. Задержаны восемь человек, находившиеся в розыске.

– В целях предупреждения преступлений в неуточное время суток, обеспечения сохранности имущества на-

селения на постоянной основе налажена работа пяти мобильных групп, ведущих ночное дежурство на улицах района, а также деятельность общественных контрольных пунктов, – говорит заместитель начальника РОВД капитан Жасурбек Расулов.

В основе достигнутых успехов лежит тесное сотрудничество инспекторов профилактики с органами самоуправления граждан, активом махаллей. В 10 сходах граждан существенно снизилась преступность, вследствие чего они переведены в категорию «желтые». Но работы еще достаточно, поскольку 11 махаллей классифицируются как «красные».

Преступления регулярно обсуждаются среди населения, анализируются причины их совершения, принимаются необходимые меры. Наряду с этим ведется последовательная работа по раннему предупреждению преступлений и правонарушений. Непокойные семьи, лица склонные к правонарушениям, любители спиртного взяты под контроль. Большую пользу приносят неформальные беседы с приглашением уважаемых людей с богатым жизненным опытом.

Личный состав отдела – в основном молодые сотрудники. В работе советами им помогают старшие коллеги, что способствует профессиональному росту начинающих инспекторов. На основе графика проводятся учебно-тренировочные занятия.

Бехзод ФАЙЗУЛЛОВ,
майор.

Бухарская область.

СКОРО ПРАЗДНИК! НО...

Не за горами новогодний праздник, любимый всеми. Игры, хороводы вокруг зеленой красавицы надолго остаются в памяти мальчишек и девчонок.

Однако не стоит забывать, что этот период характеризуется увеличением фактов использования подростками пиротехнических изделий, зачастую не отвечающих никаким требованиям безопасности. В результате «забав» с петардами, фейерверками несовершеннолетние нередко причиняют телесные повреждения самим себе либо окружающим. Это – сильнейшие ожоги рук, лица, травмы глаз...

Уважаемые родители, проводите разъяснительные беседы с детьми о недопустимости самовольного приобретения пиротехнических изделий и их использования. Сохранение здоровья детей – главная обязанность взрослых!

ОПАСНО!



Держать
зажженные
изделия в руках.



Направлять
изделия на
людей.



Наклоняться над
зажженными или
несработавшими
изделиями, а также
подходить и пытаться
зажечь их повторно.



Разрешать
пользоваться
пиротехническими
изделиями детям.



Хранить
пиротехнические
изделия дома, носить
их в карманах, сумках.

Использовать
пиротехнические
изделия в помещениях,
домах, квартирах.



TERGOVCHI YON DAFTARIDAN

JAHL KELTIRGAN KULFAT

Hayot turfa tasodiflarga boy. Inson hayotida ro'y beradigan ko'ngilsizliklarga asosan jahлга erk berish, aql bilan ish tutmaslik sabab bo'ladi. Andijon viloyatining Norin tumani bilan chegaradosh Izboskan tumanida sodir bo'lgan voqea ham ikki haydovchining yo'l talashib, «sen-men»ga borgan ortidan kelib chiqdi.

Yo'lda avtomashina rulini boshqarib ketayotgan haydovchilar – Namangan shahrida yashovchi S.Yu. Norin tumanida istiqomat qiluvchi L.Q. bilan urishib qoldi. Aytish mumkinki, janjal oqibatida S.Yu. azbaroyi jahlini jilovlay olmaganidan mashinasida bo'lgan taxta bo'lagi bilan «raqibi»ning duch kelgan joyiga ura

boshladi. Natijada jabrlanuvchi bosh miyaning 1-darajali lat yeyishi, peshona va burun suyaklarining sinishi, o'ng peshona jarohati tashxisi bilan shifoxonaga olib borildi...

Falokat oyoq ostida deymiz-u, lekin boshga kelgan ko'rgiliklarga ko'pincha insonlarning o'zi sababchi bo'lishini har doim ham anglab yetaymaymiz. Ular bir-birini tushunib, muomalani o'rniga qo'yganida edi, bu dilxiralik ro'y bermasdi. Haydovchilarning yo'llarda harakatlanish madaniyati pastligi, boz ustiga, johilligi tufayli biri og'ir darajada tan jarohati olgan bo'lsa, ikkinchisi sud qaroriga ko'ra 3,5 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

Barkamol XURSANOV,
Norin tumani IIB huzuridagi
Tergov bo'limi katta tergovchisi,
mayor.

Namangan viloyati.



YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

BOLA BILAN BOLADEK

Navoiy shahrining «G'alaba» mahallasida istiqomat qilayotgan Sohib aka xotini bilan o'zaro kelishmovchiliklar sabab ajrashdi. Onasi chet elga ketgach, 15 yoshli Siroj otasi bilan qoldi. Darz ketgan oilaviy munosabatlar ota-bola-ning ruhiyatiga qattiq ta'sir ko'rsatdi.

Sohib aka ichkilikka berilib, ko'cha-ko'ya-da maishat qilib yurardi. Qarovsiz o'g'li esa bezori bolalarga qo'shilib ketdi. Oilada mehr ko'rmagan o'smir o'qishlarida oqsay boshladi. O'qituvchilar otasiga qancha shikoyat qilishmasin, borgan sari uning xulqi ham, darslarni o'zlashtirishi ham salbiy tomonga o'zgarardi.

Bir kuni katta leytenant Shohsanam Qilicheva Sohib akaning xonadoniga bordi. Qarasa, Siroj to'rt-besh tengdoshi bilan qarta o'ynab o'tiribdi. Bolalarning barchasi bilan

suhbatlashdi. Ularning ota-onalari, yaqinlariga qo'ng'iroq qilib, holatni tushuntirdi.

Bu orada Sohib aka ham tungi navbatchilikni yakunlab, kirib keldi. Bo'lgan voqeani eshitib, o'g'liga tanbeh berdi. Ammo Siroj hurmatsizlik qilib, otasiga gap qaytarib tashladi. Shohsanam Qilicheva oilaviy muhit nosog'lom ekanligini ang'ladi. O'smir bilan do'stona suhbatlashishga urindi. Lekin o'sha paytda ruhiy holati yaxshi bo'lmagan Siroj inspektor-psixolog bilan ham gaplashishni xohlamadi.

Ertasi kuni Shohsanam Qilicheva maktabga borishdan bosh tortayotgan o'smirni nonushtaga taklif qildi. «Men milisalarni boshqacha tasavvur qilardim», deya Siroj taklifga rozi bo'ldi. Shinamgina kafeda yaxshi kayfiyatda birga nonushta qilishdi. So'ng katta leytenant «Menga aytadigan gaplaring bormi? Sir saqlashga va'da beraman», deya uning ko'ngliga qo'l soldi.

Shunda bola ko'ziga yosh olib, onasini yomon ko'rishi, uni tashlab ketganini kechirmasligi haqida gapirdi. Shohsanam Sirojning so'zlarini bo'lmasdan tingladi. Onasining harakatlarini oqlab bo'lmasligini, ammo kelajakda yaxshi inson bo'lishi, farovon turmush kechirishi uchun bilim olishi, hunar egallashi kerakligini obdan tushuntirdi. Inspektor-psixologning individual treningi sababli keyinchalik bola u bilan tez-tez uchrashib, do'stona suhbatlashadigan bo'ldi.

Shu voqeaga ham mana yarim yildan oshdi. Katta leytenant Shohsanam Qilichevaning aytishicha, o'tgan davr mobaynida Siroj biror marta ham noma'qul ish qilmagan. Aksincha, o'qituvchilari, otasi uning o'qishi ham, xulq-atvori ham ijobiy tomonga o'zgarгани haqida gapirishmoqda. Yaqinda Sohib aka inspektor-psixologga qo'ng'iroq qilib, o'g'li qo'shimcha darsga qatnashish uchun ruxsat so'raganini aytib, minnatdorlik bildirdi.

Lavhamiz qahramoni 2021-yilda Navoiy davlat pedagogika institutini psixologiya yo'nalishida tamomlab Navoiy shahar IIB JXX HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologi lavozimiga tayinlandi.

– Yoshligimdan psixologlarning faoliyatiga qiziqardim. Ichki ishlar organlarida faoliyatimni davom ettirishim menga insonlarga ruhiy ko'mak ko'rsatish imkoniyatini berdi, – deydi katta leytenant Shohsanam Qilicheva.

Katta leytenant Shohsanam Qilicheva o'ziga biriktirilgan umumta'lim maktablarida muntazam profilaktik ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, «Tig'», «Davomat», «O'smir» tadbirlarida nafaqat o'quvchilar, balki ularning ota-onalari o'rtasida ham targ'ibot ishlari olib boryapti. Chunonchi, kattalarga bolalarning maqsadsiz ko'chada yurishiga yo'l qo'ymaslik kerakligini, farzandi jinoyat va huquqbuzarlik sodir etsa, uning qilmishi uchun ota-ona ham javobgar ekanligini uqtiradi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



BIZNING SUHBAT

SIHATGOHLARDA HORDIQ CHIQRIB...

Yurtimiz tinchlik-osoyishtaligi yo'lida munosib xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ichki turizmni rivojlantirish maqsadida mamlakatimizdagi tarixiy qadamjolar va diqqatga sazovor joylarga sayohatlar uyushtirishda IIV Tarkibiy bo'linmalari xodimlari kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Xodimlar va ularning oila a'zolari uchun yaratilayotgan bu kabi shart-sharoitlar bilan bir qatorda, ularning dam olib, sog'liqlarini tiklashi uchun respublikamizdagi sanatoriy-kurortlarga yo'llanmalar berish borasida ham yetarlicha sa'y-harakatlar qilinayotir. Bu haqda mazkur qo'mita bosh mutaxassisi, yuridik fanlar doktori, iste'fodagi polkovnik Abdug'ofur Sattorov bilan suhbatlashdik.

– Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolari respublika Kasaba uyushmalari federatsiyalari tasarrufidagi qaysi sihatgohlarda hordiq chiqarib, sog'liqlarini tiklashlari mumkin?

– Bugungi kunda IIV Markaziy apparati ishchi-xodimlariga mamlakatimiz hududida joylashgan 20 dan ortiq sanatoriy-kurortlarga yo'llanmalar berilmoqda. Masalan, poytaxtimizdagi «Turon», «Chinobod», Toshkent viloyatida joylashgan «Oqtosh», «Xumson», «Botanika», «Umid gulshani», «Bo'ston», Namangan viloyatidagi «Chortoq», «Kosonsoy», Farg'ona-dagi «Chimyon», Jizzax viloyatida joylashgan «Zomin» va «Azim Zomin» hamda Surxondaryodagi «Omonxona» sihatgohi shular jumlasidandir.

Joylarda xizmat qilayotgan xodimlar ham Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, poytaxtimiz va Toshkent viloyati IIBB hamda barcha viloyatlar IIBda faoliyat olib borayotgan Kasaba uyushmalari kengashlari orqali ushbu sihatgohlarga yo'llanmalar olishi mumkin.

– Sanatoriylarga yo'llanma olish uchun murojaat qilish tartibi hamda taqdim etiladigan hujjatlar haqida to'xtalsangiz.

– Dam olish istagida bo'lgan ishchi-xizmatchilar va ularning yaqinlari har 2 yilda bir marotaba yuqorida nomlari keltirilgan sihatgohlarga borish uchun IIV Tarkibiy bo'linmalari xodimlari kasaba uyushmasi qo'mitasiga ariza bilan murojaat etishi mumkin.

Shu bilan birga, dam oluvchilardan hududiy muassasalardan kasallik tashxisi ko'rsatilgan ma'lumotnoma ham talab qilinadi.

Bu kabi tartib-qoidalar yurtimizdagi osoyishtalik posbonlari faoliyat olib borayotgan barcha hududlardagi Kasaba uyushmalari kengashlarida amal qiladi.

– Qaysi sanatoriylar qanday xastaliklarga chalinganlar uchun ixtisoslashgan?

– Haqiqatan ham, sihatgohlar muolaja turiga qarab, turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan. Davolanuvchilar ham shunga qarab, mazkur muassasalarga tashrif buyurib, 12 kun davomida hordiq chiqarishadi. Jumladan, oshqozon-ichak va o't qopi kasalliklari bo'yicha «Chinobod» sanatoriysida shifo topsa, oyoq va bel og'rig'i hamda boshqa travmatologik xastaliklarga «Chimyon», «Chortoq» va «Kosonsoy» sihatgohlarida davolanishadi. Shuningdek, asab va nafas yo'llaridagi xastaliklar bilan qiynalayotganlar «Oqtosh», «Zomin» va «Azim Zomin» sanatoriysida muolaja olsa, jigar va turli gepatit kasalliklariga chalinganlar respublikamiz janubidagi «Omonxona» sihatgohida shifo topishadi.

– Sanatoriylarga yo'llanma xarajatlarini to'lashda xodimlarga qanday imtiyozlar beriladi? Ular-

ning oila a'zolari uchun ham yengilliklar ko'zda tutilganmi?

– Xodimlar va ularning oila a'zolari uchun IIV Tarkibiy bo'linmalari xodimlari kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan 1 kishi uchun yo'llanma narxining 55 foizi miqdoridagi mablag' o'tkazilib beriladi, qolgan 45 foizi esa, dam oluvchi tomonidan qoplanadi. Agarda xodim va uning oila a'zolari bir vaqtda sihatgohga bormoqchi bo'lsa, ulardan faqat bir kishi 45 foiz, qolganlari esa, yo'llanmani 100 foiz narxda sotib olishiga to'g'ri keladi.

Joriy yil davomida respublika Kasaba uyushmalari federatsiyalari tasarrufidagi sanatoriy-kurortlarga vazirlik markaziy apparati xodimlari va ularning yaqinlari uchun 320 dan ortiq yo'llanmalar berilganligi ham fikrimiz tasdig'idir.

– Kelgusida soha xodimlari va ularning oila a'zolariga sanatoriy-kurort xizmati ko'rsatishni yanada yaxshilash borasida qanday ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan?

– Xususan, kelgusi 2024-yilda O'zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashiga murojaat qilib, sihatgohlarga beriladigan yo'llanmalar sonini yanada ko'paytirish hamda yangi sanatoriylar barpo etish to'g'risidagi takliflarni ilgari surish maqsad qilingan. Chunki o'tgan yili amalga oshirilgan ana shunday sa'y-harakatlar natijasida Toshkent viloyatidagi «Sevarsoy», «Zarkent» hamda Surxondaryoda joylashgan «Sangardak» sihatgohlari foydalanishga topshirilgan edi.

Qisqa qilib aytganda, jadallik bilan olib borilayotgan bu kabi ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham kunu tun yurtimiz osoyishtaligi yo'lida tinim bilmay xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolari sog'lig'ini tiklash va ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

«Postda» muxbiri Mixli SAFAROV suhbatlashdi.



Урок духовности и просвещения

Обществом управляют важнейшие системы – право, идеология, духовность. Законы принимаются государством. Национальная идеология – народная. Духовность основывается на национальных и общечеловеческих ценностях. Эти системы не должны противостоять, не мешать функционированию друг друга, а взаимодействовать. Человек, верный идеям национальной идеологии и обладающий высоким моральным духом, обязан жить строго по законам государства.

За годы независимости в Узбекистане сформировалась совершенно новая национальная идеология и духовная система. Средства массовой информации,



организации культуры, литература и искусство непосредственно служат пропаганде национальной идеологии и духовности с вниманием к их сути.

Как подчеркнул Президент Шавкат Мирзиёев, идеология Нового Узбекистана – доброта, человечность, гуманизм. «Когда мы говорим об идеологии, то имеем в виду, прежде всего, воспитание разума, воспитание

ЗАКОН, НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕОЛОГИЯ, ДУХОВНОСТЬ

Изучение социально-духовной среды, нахождение беспристрастных ответов на вопросы, которые ставит время, донесение их до ума и сердца каждого гражданина – важнейшая задача.

национальных и общечеловеческих ценностей. В их основе лежат тысячелетние жизненные представления и ценности нашего народа», – отметил глава государства.

Современные реалии ставят перед личностью и обществом новые проблемы, которые ждут разумного и взвешенного решения. Решение же должно основываться на интересах людей.

В демократическом обществе существует плюрализм мнений, и это верно – у каждого должен быть выбор. Однако за распро-

страняемой мыслью, посылом не должны стоять деструктивные идеи.

В настоящее время здоровым силам общества и государству необходимо осуществлять работу в области правовой культуры и правосознания, национальной идеологии и духовности на совершенно ином уровне. В их пропаганде следует использовать одновременно как традиционные, так и современные методы, нестандартные подходы, новые информационные технологии.

30 апреля нынешнего года в жизни нашей страны произошло поистине историческое событие. На основе всенародного референдума принят обновленный Основной закон. Как отметил Президент, «абсолютное большинство наших граждан, участвовавших в референдуме, голосовали с гордостью, осознавая: «Это – моя Конституция»... Референдум

наглядно показал, насколько в последние годы возросли политическое сознание, правовая культура и мировоззрение нашего народа. Этим историческим выбором народ Узбекистана еще раз продемонстрировал высокое доверие и полную поддержку реформ».

Обновленный Основной закон – фундамент укрепления нашей независимости, обеспечения мирной и благополучной жизни народа. Он пронизан созидательным духом, идеями демократии, равенства, социальной справедливости. В его основе новая система – «человек-общество-государство», где приоритетное место отведено личности, обеспечению ее прав и свобод как высшей ценности.

Встречи, круглые столы, духовно-просветительские мероприятия, на системной основе проводимые среди широких слоев населения, несут в себе именно эти идеи, раскрывая динамику преобразований, повышая правовую культуру общества, укрепляя в сознании соотечественников осознание значения обновленной Конституции и законов на пути достижения новых рубежей.

Гавхаржан ЮЛДАШЕВА,
доктор юридических наук,
профессор.

Цитаты

Если экономика – организм, обеспечивающий жизнедеятельность общества, то духовность – его сердце и душа.

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

* * *

В этом темном мире считай истинным только духовное богатство, ибо оно никогда не обесценится.

Омар ХАЙЯМ.

* * *

Растите духовно. Старайтесь радоваться за людей, а не завидовать, и вы будете счастливы.

Ирэн ОГИНСКИ.

* * *

Позорно не наказание, а преступление.

Иоганн ГЕРДЕР.

* * *

Лучшие законы рождаются из обычаев.

Жозеф ЖУБЕР.

* * *


Прежде чем осудить, всегда надо подумать, нельзя ли найти извинение.

Георг ЛИХТЕНБЕРГ.

* * *

Закон напрасно существует для тех, у кого нет ни мужества, ни средств защищать его.

Томас МАКОЛЕЙ.



YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

Respublikamizning janubiy qismida joylashgan Surxondaryo viloyatida 2 million 800 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Viloyatning Tojikiston, Afg'oniston va Turkmaniston davlatlari bilan chegaradosh ekani viloyat ichki ishlar organlari xodimlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Ularning safida, ayniqsa, yosh xodimlarning o'z vazifasiga sidqidildan yondashib, ustozlari qatorida el yukiga kamarbasta bo'layotgani quvonarlidir.

Bugun viloyat IIB hamda tuman-shahar ichki ishlar organlarida, sohaviy xizmatlarda ko'plab shijoatli yoshlar aholi xavfsizligini ta'minlash, hududda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish borasida sidqidildan xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududni obodonlashtirish, yashil bog'lar yaratish, aholi muammolarini o'rganib, ularni hal etishda ham katta jonbozlik ko'rsatishayotgani tahsinga loyiq.



Bandixon tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant So'g'diyona Usmonova hududdagi 22 ta mahallada yashovchi xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilib kelmoqda.



Qum-qo'rg'on tumani IIB HPB profilaktika inspektori, leytenant Muhridin Sultonov «Jiydali» mahallasida aholi tinchligi va xavfsizligini ta'minlash ishiga kamarbasta.



Surxondaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi jamoat tartibini saqlash guruhi inspektori, katta serjant Akmal Boysoatov shogirdi, boshqarma patrul-post xizmati bo'linmasi safdor xodimi, safdor Bahrom Eshmuratov bilan.



Viloyat IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati katta inspektori, leytenant Rasul Oripov xizmat paytida.



INSON VA TARAQQIYOT

POLITSIYA XODIMI, JARROH, VIRTUAL BOSHLOVCHI

Sun'iy intellektdan qo'rqish kerakmi?

Odatda, robotlar deganda, ko'pchilikning ko'z oldiga insonlardek gaplashadigan, ularning o'rniga ayrim yumushlarni bajara oladigan yordamchilar keladi. Ular o'z dasturiga yuklangan ma'lum bir funktsiyalarnigina bajaradi. Ammo oxirgi paytlar imkoniyatlari insonniki bilan tenglashib borayotgan, hatto ba'zan odamzod uddalolmagan vazifalarga ijobiy yo'l topayotgan sun'iy intellekt haqida bunday deya olmaymiz. Tan olish kerakki, yo'nalish va imkoniyatlari ancha kengligi hisobiga u bir tomondan ilm-fanning ulkan yutug'i deb baholanayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan katta xavf yaqinligiga ishora qilmoqda.

Sun'iy intellektning asosiy maqsadi inson qobiliyati va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirishdan iborat. Hozirda sun'iy intellekt bilan odamlarning xarakterini, o'quvchilarning qobiliyatlarini, xodimning ishga bo'lgan qarashlarini aniqlab olish mumkin. Tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga egaligi uning ommaviylikni oshirmoqda. Sun'iy intellektning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Qisqa qilib aytganda, u muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan tizim yoki texnologiya bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

Sun'iy intellekt sohasida o'tgan asr o'rtalaridan boshlab tadqiqot ishlari boshlangan. Jumladan, ingliz matematigi va kriptografi Alan Turing (1912–1954) mazkur yo'nalishdagi ilk tadqiqotchi hisoblanadi. 1950-yilda texnologiyalar imkoniyatlari insonlarni aql jihatdan ortda qoldirishi haqidagi savollarga asoslangan maqola chop etilgan. Uning muallifi ham aynan Turing edi.

XX asrning 80-yillarida sun'iy intellekt kashfiyot deya e'tirof etila boshlandi. Olimlar ushbu yo'nalishda darsliklar ishlab chiqarishga kirishishdi. Tadqiqotlar, ilmiy ishlarga keng yo'l ochildi. 1997-yilda DEEP BLUE nomli IBM kompyuteri shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovni mag'lub etgani dunyo aholini hayratga soldi. Natijada u kuchli inson idrokini yenga olgan tarixdagi ilk sun'iy intellektning yorqin hosilasi bo'ldi. Shu tariqa, asta-sekin rivojlanish bosqichlarini zabt eta boshladi!

Hozirda sun'iy intellektning sohalarga joriy etilishi uchun turli sabablar keltirilmoqda, ulardan uchta eng asosiysini keltirib o'tamiz. **Birinchisi**, arzon narxlardagi yuqori samarali hisoblash resurslari. **Ikkinchisi**, ta'lim uchun katta hajmdagi ma'lumotlarning mavjudligi. Sun'iy intellekt aniq prognozlarni amalga oshirishi uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashi kerak. Ushbu omil

aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi. Ayrim davlatlarda esa robot-hamshiralalar, haydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Jarrohlik amaliyotlari sun'iy intellekt ishtirokisiz o'tmayapti. Hatto politsiya xodimlarining ba'zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishyapti. Bundan tashqari, sun'iy intellekt jurnalistlarning



sabab turli vositalar, xususan, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning oddiy hamda arzon vositalari, turli xil algoritmlar yaratildi. **Uchinchisi**, sun'iy intellekt mahsulotlari raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. U kompaniyalar xarajatlarini va xavflarni kamaytirishi, bozorga chiqish imkoniyatini kengaytirishi hamda boshqa foydali omillar uchun ko'plab vositalarni taklif qila oladi. Natijada sun'iy intellekt joriy etilgan kompaniyalar raqobatga anchayin chidamli bo'ladi.

Ayni paytda sun'iy intellekt keng ko'lamda ommalashib, kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo'q. Hisob-kitoblar bilan bog'liq barcha jaryonlar sun'iy intellekt tomonidan inson yuz qiyofasini

doimiy ko'makchisiga aylanib ulgurgan. Masalan, «Associated Press»da «ishlayotgan» robotlar moliyaviy hisobotlarni yozib boradi. Uning qo'llanilishi ushbu nashrda har chorakda beriladigan yangiliklarni 300 tadan 4400 tagacha oshirgan. Yaqinda «Kuwait News» axborot agentligi sun'iy intellekt yordamida yaratilgan, onlayn xabarlarini o'qish uchun mo'ljallangan virtual boshlovchini taqdim etishi ko'plab muhokamalarni keltirib chiqardi.

Sun'iy intellekt haqidagi bahs-munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Haligacha bir to'xtamga kelingani yo'q. Ba'zilar ularning ommalashib, odamlar o'rnini egallab borayotgani natijasida ishsizlik ko'rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishda. Jahon iqtisodiy forumining kelajak ish o'rinlari haqidagi hisoboti-

ga ko'ra, keyingi besh yilda hozir mavjud ish o'rinlarining 23 foizi o'zgarishga uchraydi: 69 mln ish o'rnini yaratilishi, 83 mln ish o'rnini esa yo'q bo'lib ketishi kutilyapti. Bu global miqyosida ish o'rinlarining 14 millioni, ya'ni, 2 foizi yo'q bo'lib ketishi mumkinligini anglatadi. Qisqaradigan ish o'rinlari, kasblarning yo'qolib ketishiga sun'iy intellekt, ilg'or texnologiyalar ishchi-xodimlar bajaradigan vazifalarni qila boshlagach, inson mehnatiga hojat qolmasligi sabab bo'ladi. Masa-

Microsoft rahbari Bill Geyts ham sun'iy intellektning zarari haqida to'xtalib o'tadi. «Bir necha o'n yildan so'ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, sun'iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi. Bu borada Ilon Maskning fikriga qo'shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunolmayman», deydi u. «Boshqalar» deganda, Geyts Facebook egasi Mark Suckerbergni nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas. Chunki Mark sun'iy intellektga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligini bildirar ekan: «Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. Sun'iy intellektning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobiy natijani esa, yaqin 5–10 yil ichida ko'ramiz», deya Ilon Maskning fikriga e'tiroz bildirgan edi.

Tasvirlarni yaratishga qodir sun'iy intellekt insoniyat uchun katta xavf tug'dirishi, hukumatlar va kompaniyalar undan foydalanishda juda ehtiyot bo'lishlari lozimligi borasida BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Folker Turk ogohlantirish bilan chiqqani shu yilning yodda qolarli voqealaridan biri bo'ldi. «Meni sun'iy intellekt rivojlanishidagi so'nggi jadallashuv ko'proq tashvishga solmoqda. Imkoniyatlar juda katta bo'lgani kabi, xavflar ham shunchalik ulkan», deya ta'kidlagan F.Turk.

Nafsilambrini aytganda, har qanday texnologik jaryonlar, kashfiyot ixtirolarining foydali tomonlari bisyor. Buni, albatta, tan olish kerak. Lekin gap insoniyat kelajagi haqida borar ekan, hech bir masalaga shunchaki yondashib bo'lmasligini barcha yodda tutmog'i darkor. Xulosa esa siz azizlardan!

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.



■ Джизакская область

ПО СЛУЖБЕ СО СПОРТОМ

Сотрудник батальона патрульно-постовой службы УООП СОБ УВД Джизакской области рядовой Нурхаёт Алижонов в органах внутренних дел недавно, но уже снискал уважение коллег ответственностью и старанием, достижениями в спорте.



В марафоне «Янги на-фас» с участием спортсменов из стран Центральной Азии Нурхаёт завоевал серебряную медаль. В ноябре участвовал в смотре-конкурсе, организованном по инициативе МВД в Фергане,



Н. Алижонов вновь отличился. Набрал высокие баллы в стрельбе из пистолета и плавании.

Рядовой Нурхаёт Алижонов одиннадцать лет занимается рукопашным боем. За это время в республиканских и областных соревнованиях завоевал сорок медалей

разного достоинства. На трех международных чемпионатах поднимался на пьедестал почета. Заочно обучается на факультете физической культуры Джизакского государственного педагогического университета.

Соб. корр.


★ Дорога, водитель, пешеход

ПРИЗЫВАЯ К БДИТЕЛЬНОСТИ

С начала года в Самаркандской области произошло 86 ДТП с участием пешеходов, в результате которых 55 человек получили различные травмы. В целях предотвращения подобных ситуаций в Самарканде прошел рейд с участием сотрудников областного Управления безопасности дорожного движения и представителей СМИ «Внимание: пешеход!», призывающий быть бдительными на дорогах.

По статистике, наезды на пешеходов – вторая по частоте группа происшествий на дорогах. Более 60 процентов случаев приходится на темное время суток.

– Каждое ДТП с участием пешеходов анализируется, в этих местах устанавливаются знаки и светофоры, – говорит руководитель пресс-службы УБДД УВД Самаркандской области старший сержант Хуршид Сафаров. – Улицы и перекрестки, которые мы выбрали – наиболее опасные участки, где всегда интенсивное движение транспорта и чаще всего происходили ДТП с участием пешеходов. Тут дело не только в невнимательности водителей. Пешеходы часто пытаются пересечь проезжую часть в неположенном месте. Очевидно, что к решению данной проблемы нужно подходить комплексно.



Для этого следует увеличить количество регулируемых пешеходных переходов.

С начала года в регионе уже установлено свыше 900 дорожных знаков и 40 светофоров,

десять из которых оборудованы в областном центре.

Последовательное внедрение камер для автоматической регистрации нарушений ПДД со стороны водителей на территории

всей страны приносит свои плоды. Аварийность в зонах наблюдения видеокamer снижается.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

Самаркандская область.



UCHINCHI SEKTORDA

EL DARDIGA DARMON BO'LIB

Jomboy tumanidagi «Shirinkent» mahallasida yashovchi Dilbar Xo'jayrovaning uyining tomidan chakka o'tib, farzandlari bilan qishning sovuq kunlarini qanday o'tkazishni bilmay boshi qotgandi. Tuman 3-sektori rahbariga qilingan murojaatdan so'ng unga bu borada amaliy yordam berildi.

– Sektor rahbarining sayyor qabulidan xabar topib, bolalarim bilan birga bordim, – deydi ayol ko'zida yosh bilan. – Podpolkovnik O'ktam Xoliqov arzimni tinglab, yordam berishga so'z berdi va va'dasining ustidan chiqdi. Ertasi kuniyoq shifer keltirilib, tomning suv o'tayotgan qismi yangilandi.

Bu Jomboy tumani 3-sektori rahbariyati tomonidan ko'rsatilgan birgina yordam emas. Yil boshidan buyon 856 ta ehtiyojmand oilaga umumiy qiymati 1 milliard 160 million so'mdan ziyod mablag' bilan yordam ko'rsatildi.

Sektor hududi o'nta mahallani o'z ichiga oladi. Bu mahallalarda istiqomat qilayotgan aholini

xonadonma-xonadon yurib o'rganish asosida ishlar olib borildi. Ehtiyojmand, turmush sharoiti og'ir bo'lgan oilalar, davolanishga muhtoj nogiron va keksalar, yolg'iz qariyalar, og'ir ahvolda qolgan ayollar ro'yxati shakllantirilib, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, muammolarini hal etish choralari ko'rildi. Jumladan, yil boshidan buyon 230 dan ziyod oilaga oziq-ovqat ko'rinishida yordam berilgan bo'lsa, 14 ta oilaga moddiy yordam ko'rsatilib, 34 ta oilaga zarur dori-darmonlar olib berildi.



Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yil boshidan buyon «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 484 nafar yigit-qizdan 223 nafari ishga joylashtirildi, 47 nafariga imtiyozli kredit olishda ko'maklashildi, 25 na-

fari ish uchun zarur asbob-uskunalar bilan ta'minlandi, 47 nafarining ta'lim kontrakti to'landi.

Xotin-qizlar masalalari ham sektor rahbariyati e'tiborida. Yil boshidan buyon 445 nafardan ziyod xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. Ulardan 60 nafari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullana boshladi. O'n nafar ayol uy-joy bilan ta'minlandi.

Sektor rahbariyati yordami bilan «Olmazor», «Dehqonobod», «Qo'rg'onsalomon», «Nayman» va Alisher Navoiy nomli mahallalar aholisini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun 5 ta yangi transformator o'rnatildi. 22 ta transformator ta'mirlanib, 71 ta temirbeton ustun almashtirildi.

Haftaning shanba kuni sektor shtabi rahbariyati tomonidan sayyor qabul o'tkazilib, fuqarolarning muammolari tinglanmoqda.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA

YO'L HARAKATI INTIZOMI
BOLALIKDAN BOSHLANADI

Yo'llarda harakat ishtirokchisiga aylangan har bir fuqaro, u haydovchimi, piyoda yoki yo'lovchi bo'lishidan qat'i nazar, harakat xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishi lozim. Aks holda jiddiy oqibatlariga olib keluvchi noxush holatlar yuz beraveradi. Ayniqsa, bolajonlar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari achinarli holdir. Ana shunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida IIV JXD YHXX tomonidan bir qator xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, respublika miqyosida bir qator umumta'lim maktablari yo'l harakati qoidalarini o'rgatishga ixtisoslashtirilmoqda. Poytaxtimizning Yunusobod tumanida joylashgan 288-sonli

umumta'lim maktabida ham o'quvchilar uchun harakat xavfsizligi sinfxonalari, yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maydonchasi va muzey tashkil etilgan. Bu imkoniyatlar o'quvchilarga yo'l harakati qoidalarini, haydovchi va piyodalarning majburiyatlari hamda harakat xavfsizligi shartlarini interfaol usulda o'rgatishga zamin yaratadi. Ta'lim muassasasiga birlashtirilgan YPX inspektorlari tomonidan muntazam ravishda dars mashg'ulotlari olib borilayotgani esa bolajonlarning mazkur yo'nalishdagi bilimlarini oshirayapti.

– Yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maydonchasi o'quvchilar bilimini oshirishda katta ahamiyatga ega, – deydi Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi 3-batalyon komandirining o'rinbosari, podpolkovnik Murodullo Toshmirzayev. – Maydonchada yo'l belgilari, svetofor va chorraha muhiti aks ettirilgan bo'lib, unda bevosita dars

mashg'ulotlarini o'tamiz. Bu esa ularda amaliy ko'nikmalarni hosil qilishda qo'l keladi.

– Bu kabi amaliy ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad «Yo'l harakati intizomi bolalikdan boshlanadi» shiorini o'quvchilar ongiga singdirishdan iborat, – deydi maktab direktori Nodira Dadaqo'ziyeva. – Natijada bolajonlarimiz xavfsiz va sog'lom bo'lib voyaga yetishadi. Bundan tashqari, ta'lim muassasamiz yo'l harakati qoidalarini o'rgatishga ixtisoslashtirilganidan so'ng o'quvchilarimizning bu boradagi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Xususan, «Yashil chiroq» ko'rik-tanlovining tuman va shahar miqyosida o'tkazilayotgan musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishayotgani fikrimiz tasdig'idir.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



QILMISH-QIDIRMISH

YOSHLIK – BEBOSHLIK EMAS

Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi, eng avvalo, jamiyatda o'sib-unayotgan yosh avlodga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilarkan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. Ammo ba'zan uchrab turadigan yoshlarning «xurmacha» qiliqlarini eshitib qolsangiz, kayfiyatingiz tushadi.

TILLAVOR O'G'RISI

Qishloqda to'y bo'lyapti. Hamma xursand, ayniqsa, ayollar shodmon. Ular yangi tiktirgan kiyimlarini kiyib, pardoz-andozni joyiga qo'ygan va to'yga oshiqayotgan edi. Birgina Gulbibining (ism-shariflar o'zgartirildi) uyida noxush holat yuz bergan. Osoyishtalik posbonlari undan ko'r-satma olishmoqda.

U hammasini gapirib berdi. Faqat tergovchi o'g'li bilan munosabatlari haqida so'raganida tili tutilib qoldi. Ayol Salimning o'tgan kun-gi hunarini aytaymi yo aytmaymi deb ikkilanib qoldi. Chunki Salim sinfdoshining tug'ilgan kuniga qimmatroq narsa olmoqchi bo'lib, pul so'ragan edi. Gulbibi esa «Otang uzatgan pulga shifer oldik», dedi. Ammo o'g'li yarim kechasi og'zi qulog'ida kirib kelgach, birovdan qarz olgan deb o'ylagan edi. Shularni xotiriga yana bir karra keltirib, tergovchiga yuzlandi.

Tajribali tergovchiga shuning o'zi yetarli bo'ldi. U ayolni tinchlantirib, ekspertiza xulosasini kutishga qaror qildi. Buni qarangki, qutichadan olingan barmoq izlari orasida Salimniki ham bor ekan. Shunday qilib, tillavor o'g'risi Gulbibining o'g'li bo'lib chiqdi...

QIMMATGA
TUSHGAN
SAYR

Rahimjon bo'sh paytlari tog'asi-ga tegishli mashina yuvish shoxobchasi-da ishlardi. Agar qulay avtomashina duch kelsa, unda bir ko'chalarni aylanib kelardi.

Bir kuni kechki payt «Lacetti» rusumli avtomashina egasi shoshib turgani bois telefon raqamini qoldirib: «Yuvib bo'lgach, menga qo'ng'iroq qil», dedi.

U ketgan zahoti Rahimjon ham avtomashinani o't ol-dirdi-da, bir sayr qilmoqchi

bo'ldi. Katta tezlik bilan avtomashinani boshqarib borarkan, rulni tuman markaziga burdi...

Rahimjon yo'ldagi notekislikni pisand qilmay, nuqul tezlikni oshirardi. Nogoh duch kelgan chuqurchaga chap beraman deb, rulni biroz burganida, mashinaning bir tomoni ko'tarilib ketdi. U qo'rqib ketganidan tormozni qattiq bosdi. Natijada ortidagi avtomashina kelib urildi va «Lacetti» dumaladi. Unga biror jiddiyroq shikast yetmagan bo'lsa-da, avtomashina pachaqlangan edi...

XULOSA O'RNIDA

Ha, yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan bu kabi huquqbuzarliklar jamiyatimizga dog' tushiryapti. Ularning aksariyati o'qimaydi, jamoatchilikdan o'zini olib qochadi, odamlar bilan muloqot doirasi tor. Oilada, mahallada, jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklarga butunlay befarq. O'z muammolari bilan o'zlari ovora bo'lib yuraveradilar. Shu bois o'zlarini boshi berk ko'chaga kirib qolgandek his qiladilar. Ota-onalar, tajribali pedagoglar, mutaxassislarning o'rinli bir og'iz maslahati, yo'l-yo'rig'i yordamida hal qilsa bo'ladigan muammolar ularga mutlaqo yechib bo'lmaydigan jumboq bo'lib tuyuladi.

Biz kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarning har bir xatti-harakatidan ogoh bo'lishimiz lozim. Ularga nisbatan kattalarning loqaydligi katta fojiga olib keladi. Bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida o'quv dargohlarida, mahallalarda targ'ibot tadbirlarini o'tkazib turishimiz darkor. Uch-rashuvlarni tajribali o'qituvchilar, mahalla va qishloq faollari, shifokorlar, ota-onalar bilan hamkorlikda o'tkazish o'rinli bo'ladi.

Shunday ekan, hech qachon dilbandlarimiz tarbiyasiga, kelajagiga befarq bo'lmaylik! Toki, ular bizdan faqatgina yaxshi xislatlarni andaza qilib olishsin. Bundan tashqari, yoshlarga ham aytar so'zimiz bor: yoshlik – beboshlik emas, uning qadriga o'z vaqtida yetsangiz, kam bo'lmaysiz, azizlarim!

Shaxobiddin RAHMONOV,
mayor.
Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

JINOYAT MUHOKAMASI

Wi-Fi ishlamaganda

yoki murosasizlikdan
muhokamagacha

Sabr, murosas-madira qilish, shoshqaloqlik va o'zaro kelishmovchilik... Kundalik hayotimizda shu jihatlarning o'zi har qanday insonning xarakterini bilib olishga yetarli bo'ladi. Yaxshilikka bo'lsa-ku, olam guliston, ammo bunda ayrim ko'ngilsizliklar dilni xufton qiladi-da...

Nimadir sabab bilan uyida Wi-Fi ishlamayotganidan asabiy bo'lib ko'chaga chiqqan Anvar (ism-shariflar o'zgartirildi) aynan shu ishlarga mas'ul xodimga duch kelib qoldi. Va internet tarmog'ida-gi uzilishni tezroq bartaraf etishini aytdi. Shundoq ham aynan shu ish bilan andarmon Doniyor bu gapni xushlamaydi. Ikkovlon o'rtasidagi gap talashish yoqalashishgacha yetib boradi. Natijada Doniyor tan jarohati oldi.

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani «Omonboyko'pri» mahallasida sodir etilgan ushbu jinoyat yuzasidan muhokama yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Xondamir Umarov, tuman hokimligi, sektor rahbarlari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

– Mahallamizdagi 776 ta oilada 3856 nafar aholi istiqomat qiladi – deydi mahalla raisi Umar Rahmonov. – Barcha uy-ro'zg'or yumushlari, chorvachilik, bog'dorchilik bilan band. Kutilmaganda arzimagan sabab tufayli ikki fuqaro o'rtasida janjal kelib chiqishi, biri ikkinchisiga tan jarohati yetkazgani yaxshi bo'lmadi. Bugun ishtirok etganlar bilan kelishmovchilik sabablari va oqibatlarini atroflicha muhokama qildik. Va bu kabi salbiy holatlarning oldini olishda endilikda mahallamiz profilaktika inspektori, mayor Shahobiddin Xo'jayev bilan profilaktik suhbatlarda alohida e'tibor qaratamiz.

Shuningdek, muhokamada so'z olganlar bu salbiy holatlar ro'y bermasligi uchun har bir oila bilan alohida ishlash, ulardagi ma'naviy muhitni e'tibordan chetda qoldirmaslik, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratish zarurligini ham qayd etishdi.

Hudud tinchligini ta'minlashda mahalla va jamoatchilik rolini oshirish, nuroniy otaxon va onaxonlarning ishtirokini kuchaytirish kerakligi ta'kidlandi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



TABARRUK QADAMJOLAR

BIBI NAIMA ONA ZIYORATGOHI

Chortoq – allomalar, zakiylar, aziz avliyolar yurti. Bibi Naima ona haqidagi hikoyamiz tumanda ma'lum va mashhur bo'lgan «Baliqli ko'l» ziyoratgohi bilan bog'liq.

«Baliqli ko'l» ziyoratgohi tarixi Sulton Uvays Qaraniy bilan bog'lanadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u 621-yilda Yamandagi Qaran qishlog'ida Murodiy qabilasining chorvador oilasida tavallud topgan. Fariddin Attor ma'lumotlariga ko'ra, u kishining to'liq ismlari Suhayl ibn Omir Qaraniydir.

Bir ulug' zotni ko'rmasdan, undan ruhiy ta'lim olgan buzruk zot Uvays (xokisor, kamtar kimsa) deyiladi. Bu laqab ilk bora Payg'ambarimiz tomonlaridan Sulton Uvaysga berilgan. Bu haqda Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida batafsil to'xtalib o'tadi. U zotning «Sulton» deyilishiga sabab avliyolar sultoni, a'losi bo'lganlar.

Rivoyatlarga ko'ra, Uvaysning qalbiga Muhammad Mustafo (s.a.v)ning otashi tushadi. Unda Rasuli akramni ziyorat qilish orzusi paydo bo'ladi. Shundan so'ng Sulton Uvays

gan kuni tush ko'radi: unda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v): «Ey Uvays, men bilan uchrashmay ketibsan-da, sen endi onangni tuyaga mindi-

rib, Turon sari yo'l ol. O'sha yerda Bo'spi tog'i bor, uning yonbag'irlarida tuya boqish bilan mashg'ul bo'l», deydi. Ertalab ko'rgan tushini onasiga aytib, Payg'ambarimizni ko'ra olmasam-da, u kishining aytgan-




Naima ona» ziyoratgohi joylashgan. Ziyoratgoh aholi tilida «Sutli buloq» deb ham nomlanadi. Bu suvda sutning ta'mi bor, har juma kuni ma'lum muddatda xuddi buloqdan oppoq sut otilib chiqib oqayotgandek ko'rinadi.

muzei, kutubxona, mehmonxonani o'z ichiga oladi.

«Baliqli ko'l»ni suv bilan ta'minlab turuvchi manba bu – sirli buloqlardir. Ana shu buloqlardan har daqiqada 140 litrga yaqin suv otilib chiqadi. Bu maskan ancha katta maydonni egallaydi, ko'l atrofida soya-salqinda manzarani tomosha qilar ekansiz, albatta, nigohingiz buloqning ostida suzib yurgan baliqlarga tushadi. Ularning oqimdan chiqib ketmasligi va haftaning har juma kuni yo'q bo'lib qolishi ajoyib mo'jiza. Buning sababi hamon sirlicha qolmoqda. Yana bir g'aroyib jihat shundaki, bu baliqlar ko'payib ham, ozayib ham qolmaydi. Shunga nisbat berilgan holda, qishloq ham «Baliqli ko'l» deb nomlangan.

Baliqli ko'l va Bibi Naima ona ziyoratgohlari doimo gavjum. Yurtimizning turli viloyatlaridan, xususan, qo'shni respublikalardan Islom olamidagi ulug' zotning qabrini ziyorat qilgani kelayotgan sayyohlar safi ortib bormoqda. Ziyoratgohlarni viloyatning muhim turizm markazlaridan biriga aylantirish sa'y-harakatlari jadal davom etmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA tayyorladi.



Madinaga boradi, ammo Rasuli akram bilan ayrim sabablarga ko'ra, uchrasha olmaydi. Uvays uyiga kel-

lariga itoat aytayin, deb yo'lga otlanadi. Ko'p qiyinchiliklarni yengib, kimsasiz sahro-

ga, ko'kargan bir tup gilyoh bo'lmagan, tomchi suv yo'q maskanga yetib kelishadi.

Sulton Uvaysning onasi yo'l azobidan ko'p holdan toygani bois shu joyda, Bo'spi tog'i etaklarida hayotdan ko'z yumadi. Kimsasiz sahroning issiq kunida Uvays onasining jasadini yuvish uchun suv topa olmaydi. Shunda Allohga: «Onam jasadini yuvish uchun suv bergin!» deb iltijo qildi. Alloh buyuradi: «Hassangni yerga sanch!». Uvays qo'lidagi hassasini yerga sanchganida mo'jiza ro'y berib, qizib turgan tuproqdan suv otilib chiqadi. Onasini shu buloq suvida yuvib, jasadini buloq tepasiga qo'yadi. Bu qabr hozirgacha saqlanib qolgan.

Hozirda bu joyda Uvays Qaraniyning onalari «Bibi

Avloddan avlodga o'tib kelayotgan rivoyatlarga qaraganda, Sulton Uvays onasining hatto qabrini ham tashlab ketmagan. Shu makonda odamlarning chorvasini boqib, tirikchilik qilgan.

Uvays Qaraniy faqirona hayot kechiradi, turli ilmlarni chuqur o'rganib, avliyolar darajasiga yetadi. Manbalarda u 12 boblik «Tazkirot ul-harb» («Harbiy san'at») nomli risola ham yozgani aytilgan.

Davlatimiz rahbari 2017-yil 7-iyulda viloyatga tashrifi mobaynida «Baliqli ko'l» ziyoratgohida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari bilan tanishib, bu yerni sharqona uslubdagi me'moriy yechimlar bilan ko'rkam va obod maskanga aylantirish yuzasidan o'z tavsiyalarini bergan edi. Hozirga kelib «Baliqli ko'l» ziyoratgohi asosida yirik majmua tashkil etildi. Majmua masjid, maqbara,

BUYUKLAR HAYOTIDAN

NASRDAGI PUSHKIN

Anton Chexovni ulug' rus adibi Lev Tolstoy ana shunday ta'riflagan edi.

Imperator Nikolay II 1899-yilda yozuvchiga dvoryanlik unvonini beradi. Ammo kamtarin ijodkor hech qachon o'zining bu unvonini ko'z-ko'z qilmaydi. Rossiya hukmdorining oila davrasida adibning asarini tez-tez o'qib turishardi, ba'zan esa ular asosida sahna ko'rinishlari namoyish etishardi.

Asl kasbi shifokor bo'lgan Anton Pavlovich bir umr muhtojlarga xayr-saxovat ko'rsatib keldi. Qishloq maktablari va kambag'allar uchun sihatgohlar qurilishiga moddiy jihatdan ko'maklashdi, ularni bepul davoladi, tekinga dori-darmonlar

tarqatdi. O'zi sil kasalligiga chalinganini bilib qolgach, buni boshqalarga bildirmaslikka harakat qildi. Hatto qattiq tobi qochgan kezlarda ham yaqinlarini bezovta qilmaslikka intilardi.

U qisqa, sodda va go'zal hikoyalari bilan adabiyotda chinakam burilish yasadi. G'arbda esa ijodkorni buyuk dramaturg sifatida e'tirof etishardi. Adib vafoti oldidan singlisiga qoldirgan vasiyatnomasida shunday deb yozgandi: «Kambag'allarga yordam ber. Onamizni asra. Ahil-inoq yashanglar».

Bobomurod TOSHEV tayyorladi.



SALOMATLIK SABOQLARI

NONNING USHOG'I
HAM NON, AMMO...

Kundalik hayotimizda eng ko'p iste'mol qilinadigan ne'mat – non muqaddas ekanini bilamiz. Ko'pincha non biroz turib qolsa, yuzasida mog'or paydo bo'ladi. Bunda uni tashlash juda achinarli, qolaversa, uvol bo'ladi. Ko'pchilik shunchaki mog'orlagan qismini kesib olib, qolgan qismini iste'mol qilaveradi. To'g'ri, bu yo'l bilan katta paketlarga qadoqlangan nonlarning ehtimol kamida yarmini tejash mumkin. Qachonki, nonning bir tomoni mog'orlagan bo'lsa, shu qismi olinib, zarar ko'rmagan joyini iste'mol qilsa bo'ladi. Biroq mutaxassislar mog'orlagan nonni iste'mol qilishni tavsiya etmaydi, chunki u sog'liq uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Xo'sh, nondagi mog'or nimasi bilan xavfli bo'lishi mumkin? Ba'zi odamlar uchun bu hech qanday zarar keltirmaydi, chunki sporelar oshqozonda oddiygina hazm qilinadi, deb hisoblaydi. Biroq mog'orning ayrim turlari nafas olish muammolari va allergik reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin, eng yomon holatda esa oziq-ovqat zaharlanishiga olib keladi. Shuning uchun sog'liqni xavf ostiga qo'ymaslik, balki yangi non sotib olish tavsiya etiladi.

Aytgancha, non mog'orning yuqori qatlamini olib tashlash orqali yeyish mumkin bo'lmagan yagona mahsulot emas. Bu yumshoq tarkibga ega bo'lgan barcha mahsulotlar: konserva va murabbolar, konservalangan sabzavotlar, meva va pishirilgan go'shtlarga ham taalluqlidir.

NA'MATAK – BU DORIXONA

Inson sog'lig'ini asrash, kasalliklarning oldini olishda tabiat in'omlari ichida na'matak shunchalik foydali, shifobaxsh va zarur ne'matki, uning bitta o'zi butun boshli dorixona o'rnini bosishi mumkin. Chunki uning kimyoviy tarkibi, farmakologik xossalari o'rganish natijasida olingan tahlillar na'matakning vitaminlarga boy, shifobaxsh o'simlik ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, na'matak tarkibida inson salomatligi uchun nihoyatda zarur bo'lgan S, V-2, R, Ye, K darmondorilari mavjud. Shuningdek, u karotin, qand, yog', organik kislotalar, flavonoidlar, pektin, ma'danli tuzlar va boshqa moddalarga nihoyatda boy. Mevasida ma'danli tuzlardan kaliy, temir, marganes, fosfor, kalsiy, magniy bor.

Shifokorlar shamollashning oldini olish va davolash uchun tavsiya etadigan na'matak mevalarining damlamasi askorbin kislota-si va C vitaminining tabiiy manbayi sanaladi. Bundan tashqari, u bir qator foydali mikroelementlar, jumladan,



kaliy, magniy, kalsiy va natriyni o'z ichiga oladi. Na'matak organizmning himoya qobiliyatini kuchaytiradi, qon tomirlarini mustahkamlaydi, qon bosimini pasaytiradi. Hazm qilish tizimini me'yorga keltiradi.

Na'matak siropi yoki mevalaridan tayyorlangan choy qish mavsumida viruslar faollashganda va immunitet darajasi pasayganda juda samarali hisoblanadi. Agar ushbu xalqona vosita muntazam ravishda qabul qilinadigan bo'lsa, unda shamollashdan saqlanish,

shifo jarayonini tezlashtirish va kasallikdan keyin tezroq tiklanish mumkin bo'ladi. Na'matak damlamasi gemoglobinni ko'paytirish va kamqonlik rivojlanishining oldini olishga, gepatit kasalligini davolashda yordam beradi. Na'matak tarkibidagi moddalar antioksidantlik xususiyatiga ega bo'lib, qarish jarayonini sekinlashtirish xususiyatiga ega.

Bir so'z bilan aytganda, tabobatda na'matakning guli, mevasi, urug'i, bargi va hatto ildizi ham koni foyda.

**Gulnoza
TURG'UNBOYEVA
tayyorladi.**

КАК ОТЛИЧИТЬ ПНЕВМОНИЮ ОТ ОБЫЧНОЙ ПРОСТУДЫ?

Пневмония – одно из распространенных заболеваний. Если вовремя не обратиться к врачу и не начать лечение, болезнь может привести к серьезным последствиям. Именно поэтому важно знать, как проявляется пневмония и чем она отличается от простуды или гриппа.

**Что такое пневмония
и как она возникает**


Второе название пневмонии – воспаление легких. Она характеризуется поражением нижних дыхательных путей и развитием воспаления в легких и бронхах.

Пневмония – острое инфекционное заболевание преимущественно бактериального происхождения. Пневмококк – бактерия, которая при попадании в организм может стать причиной менингита, пневмонии и даже сепсиса. Заражение пневмококком происходит, когда больной чихает или кашляет рядом с вами.

Проявления пневмонии могут меняться в зависимости от индивидуальных факторов протекания болезни у пациента. В то же время она характеризуется симптомами, появление которых должно стать поводом для визита к врачу.

Основные симптомы:

- острый кашель;
- отделение мокроты при кашле;
- боли в грудной клетке при дыхании;



- одышка;
- слабость;
- утомляемость;
- озноб.

При этом у разных пациентов симптомы пневмонии могут немного видоизменяться. Например, для пожилых людей основными могут стать сонливость, спутанность мыслей, тошнота и усиление уже име-

ющихся хронических заболеваний.

У некоторых пациентов появляются, боль в груди, одышка и высокая температура. У других могут быть более легкие симптомы, такие как кашель и субфебрильная (до 37,5°C) температура. Пожилые люди и лица с ослабленной иммунной системой более восприимчивы к тяжелым формам пневмонии.

**Чем она отличается
от простуды**

И пневмония, и простуда имеют много схожих симптомов, поэтому болезни легко перепутать, если заниматься самодиагностикой. Для обоих заболеваний характерны интоксикация организма (слабость, вялость, головные боли), повышение температуры и кашель.

При пневмонии к этим симптомам присоединяется боль в грудной клетке и одышка. Еще одним специфическим симптомом пневмонии является выраженный кашель, который трудно поддается терапии и сохраняется на протяжении долгого времени.

**Когда стоит
обращаться к врачу**

Ежегодно человек переносит от одной до четырех простуд, что является нормой. Если у вас есть симптомы простуды, которые долго сохраняются и сильно проявляются, следует обратиться к врачу.

Основным отличием ОРВИ от пневмонии является то, что с ОРВИ организм может бороться самостоятельно. Спустя неделю после начала болезни симптоматика полностью исчезает, если у человека крепкий иммунитет и нет осложнений. Этого нельзя сказать о пневмонии, которую необходимо лечить как можно раньше после диагностики. Запущенные случаи пневмонии могут привести к тяжелым последствиям.



Внутренний туризм



«Уч булок» («Три источника») расположен в Андижанской области, на южной стороне магистрали «Андижан–Наманган». Живописный уголок состоит из прямоугольного сада и цветника. В центральной части сада установлен айван. Он украшен узорной резьбой в национальном стиле. Точных сведений о появлении на этом месте трех источников не сохранилось.

Однако легенда гласит, что это место посетил Саид Бурхониддин Килич. После его посещения выросли многочисленные тополя. Местные жители деревья не обрезали. Разрастаясь, ветки опадали, старые деревья погибали и разлагались. Это место стали называть «Мазар тополей». Появившиеся здесь три источника расположены на расстоянии друг от друга в 1,5 метра и являются термальными. Считается, что их вода способна избавить от боли и излечить от многих недугов.

Вода родников «Уч булок» характеризуется высокой степенью чистоты. Уникальное сочетание



минералов, содержащихся в воде, делает ее особенно полезной для здоровья. Она содержит калий, магний, кальций и натрий, которые необходимы для нормального функционирования организма. Благодаря фильтрации через многометровую толщу песка вода прозрачна, не

имеет запаха и хранится продолжительное время.

Родники – глаза Земли – испокон веков были для людей не только источниками живой влаги, но и жизнеутверждающей силы.

Соб. корр.



IV Akademiya rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi Jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati fakulteti boshlig'i v.b., polkovnik Baxrambek Adilovga opasi **Zuhra SHARIPOVA**ning vafot etganligi munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

IV Akademiya rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi Psixologik ta'minlash markazi katta psixologi, kapitan Nilufar Axmedovaga onasi **Mukarramxon aya AXMEDOVA**ning vafot etganligi munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(25 – 31-dekabr)



Qo'y. Bu hafta kasb-hunar va moliyaviy jabhada sizga omad kulib boqadi. Lekin har bir ishda boshqaruvni o'z qo'lingizga olib, kuchli ishonch va qat'iyat bilan harakat qiling. Bu davrda his-hayajonga berilmay, imkon boricha bosiqlik bilan ish yuritish lozim. Shanba va yakshanba kunlarini toza havoda sayr qiling.



Buzoq. Ish joyingizda kutilmagan va asosiy o'zgarishlar yuz beradi. Ushbu kunlarda kayfiyatingiz ham ko'tarinki bo'lib, qo'l urgan ishlaringiz baroridan keladi. Lekin salomatlikka jiddiy e'tibor qaratishni ham unutmang. Jismonan og'ir vazifalardan chetlashib, ta'bni xira qiluvchi va ko'ngilni og'rituvchi barcha holatlardan uzoqlashang.



Egizaklar. Kelayotgan hafta davomida ezgu maqsadlarga erishish yo'lida tashabbuskor va faol bo'lishingizga to'g'ri keladi. Buning uchun sizda kuch ham, imkoniyat ham yetarli, xohish bo'lsa bas. Katta ishlarni do'stlar va yaqinlar yordamida bamaslahat amalga oshirgan ma'qul.



Qisqichbaqa. Tashabbuskorlik va ishdagi faollik ortidan barcha moliyaviy masalalarni omadli hal qilishingiz mumkin. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun hafta boshida bajarilgan ishlarni yana bir bor ko'zdan kechiring. Dam olish kunlarini imkon qadar oila davrasida o'tkazing.



Arslon. Dushanba va seshanba kunlari hushyor bo'ling. Chunki bu vaqtda kasbiy sohangingiz oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Hafta davomida ziddiyatlarning oldini olishga harakat qiling. Yon-atrofdagilar bilan xushmuomala bo'lib, ular bilan aslo bahslashmang.



Parizod. Bu haftada vaqt va imkoniyatlardan unumli foydalangan holda ko'pgina muhim ishlarni bajarib olishga ulguring. Bu davrda o'zingizga bo'lgan ishonch, qat'iyat sizni to'lqinlantirib turadi. Ayniqsa, moliyaviy muammolarni ijobiy hal etish masalasini unutib qo'ymang. Shaxsiy biznesi borlar uchun moliyaviy masala birinchi o'rinda turishi kerak.



Tarozi. O'z qarashlaringizga bo'lgan ishonchsizlik va oiladagi kelishmovchiliklar tufayli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Yaxshisi, hayotning asosiy quvonchini his etishga xalaqit qiluvchi ba'zi qarash va o'y-fikrlardan voz kechganingiz ma'qul. Hafta davomida salbiy oqibatlar kuzatilmasligi uchun sog'liqni mustahkamlashga e'tibor qarating.



Chayon. Bu hafta sizga omad kulib boqadi. Anchadan beri o'z yechimini topa olmayotgan muhim masala aynan shu kunlarda hal bo'lishi mumkin. Rejalashtirilgan barcha yumushlar ko'ngildagidek amalga oshadi. Buning uchun sizda imkoniyat ham, kuch-quvvat ham yetarli. Moliyaviy jihatdan ham muvaffaqiyat siz tomonda bo'ladi.



O'qotar. Ilk davr ish faoliyatida ba'zi qiyinchiliklar yuzaga keladi. Sizdan o'z kuchingizga ishonib, hech ikkilanmasdan harakat qilish talab etiladi. Yoshi va lavozim jihatdan yuqori turuvchi tanishlar bilan munosabat qilishda imkon qadar xushmuomalalikni o'rniqa qo'ying. Janjal va tortishuvlardan uzoq turing. Dam olish kunlarini o'z xonadoningizda yaqinlar bilan birga o'tkazing.



Tog' echkisi. Hafta boshida ish joyingizda tekshiruv tashkil etilishi mumkin. Bundan aslo xavotirga tushib, qayg'urmang. Aksincha, barcha sa'y-harakatlaringiz munosib baholanadi. Haftaning ikkinchi yarmida tarang asablarni bo'shashtiring, ijodiy rejalarni amalga oshirish haqida o'ylang.



Qovg'a. Siz umid bog'lagan hayotdagi o'zgarishlarni ortga surib turgan ma'qul, chunki bu davr o'zgarishlar uchun unchalik mos emas. Ish joyingizda hamkasblar bilan tushunmovchiliklar kuzatilishi mumkin. Nizo va kelishmovchilikni uzoqqa cho'zmaslikka harakat qiling.



Baliq. Bu hafta va'da berdingizmi, albatta us-tidan chiqing. Ko'zingizga juda mayda ko'ringan ishlarni ham bajonidil, o'zgacha havas bilan ado eting. Moliyaviy masalada har bir harakatingizni yaxshilab tahlil qiling. Shundagina keyinchalik qiynalib qol-maysiz.



SPORTNI SEV, SPORT BILAN YASHA

YOSHLAR VA KATTALAR O'RTASIDA
O'ZBEKISTON KUBOGI«O'ZBEKISTON KUBOGI»
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
TERMA JAMOASIDA

15–19-dekabr kunlari Farg'ona shahridagi «Samo» sport majmuasida «Universal jang» federatsiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan yoshlar va kattalar o'rtasidagi O'zbekiston kubogi musobaqalari o'tkazildi. Unda mamlakatimizning barcha hududlaridan 20 dan ziyod jamoalar ishtirok etib, g'oliblik uchun bahs olib bordilar.

Ichki ishlar vazirligi terma jamoasi mazkur musobaqada faxrli 1-o'rinni egalladi.

Milliy gvardiya jamoasi faxrli 2-o'rinni, Favqulodda vaziyatlar vazirligi jamoasi esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

SERBIYA
TATAMILARIDA
QUCHILGAN
ZAFAR

Yaqinda Serbiyaning Belgrad shahrida sportning Fudokan karate-do yo'nalishi bo'yicha yoshlar va kattalar o'rtasida bo'lib o'tgan IX jahon chempionati sportchilarimiz uchun omadli kechdi. Unda dunyoning 50 dan ziyod mamlakatidan 5 ming nafar sportchi ishtirok etdi.

O'zbekiston Fudokan karate-do federatsiyasi va IIV «JAR» sport-sog'lomlashtirish majmuasi sportchilari ham chempionatda faol ishtirok etib, mamlakatimiz sha'nini munosib himoya qildi.

Fudokan karate-do bo'yicha mamlakatimiz terma jamoasining 6 nafar a'zosi yakka kata, jamoa kata, yakka kumite, yakka kata hamda jamoa kata an'anaviy yo'nalishlari bo'yicha o'tgan musobaqalarda faol qatnashib, 7 ta oltin, 5 ta kumush va 4 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

– Iqtidorli sportchilarimizdan Muslima Badalova, Soliha Rahimova Mironshoh Nazarov, Sitira Rixsiyoyeva,

Sherzod Anvarov, Mahmudjon Badalov singari ko'plab yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar mamlakatimiz karatechilarining yangi avlodi kamolga yetayotganligidan dalolat beradi, – deydi IIV «JAR» sport-sog'lomlashtirish majmuasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, podpolkovnik Shuhrat Anvarov.

O'z muxbirimiz.

IIV TA'LIM MUASSASALARIDA

MUNOSIBLAR TAQDIRLANDI



Sirdaryoda umumta'lim fanlari bo'yicha respublika fan olimpiadasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Iste'dodli o'quvchi-yoshlarni aniqlash, ularning intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bilim va qobiliyatlarini oshirish, fanlarni chuqur o'zlashtirishga undagan holda intellektual salohiyatini yuksaltirish maqsadlarini ko'zda tutgan olimpiadada quyi bosqichlarda muvaffaqiyat qozongan viloyatdagi umumta'lim maktablari-ning 9–11-sinf o'quvchilari hamda akademik litseyilar va

kasb-hunar maktablarining iqtidorli o'quvchilari ishtirok etishdi.

Fan olimpiadasining viloyat bosqichida IIV Sirdaryo akademik litseyi o'quvchilari ham munosib ishtirok etishdi. Jumladan, Xurshida Ismoilova nemis tili fanidan 1-o'rinni, tarix fanidan Javohir Samadov, nemis tili fanidan Jahongir Sultonov, fransuz tili fanidan Shohrux Hazratqulov 2-o'rinni qo'lga kiritishdi. Ular esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

O'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchi –

Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma №3929.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50436 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postdauz